**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**
**TABIIY FANLAR FAKULTETI**
**BILOGIYA KAFEDRASI**

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZIL KITOBIGA KIRITILGAN O‘SIMLIKLARNING KO‘RSATKICHLARINI QIYOSIY O‘RGANISH (FARG‘ONA VODIYSI MISOLIDA)” MAVZUSIDAGI BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: `Biologiya` ta’lim yo’nalishi bitiruvchi 4-kurs talabasi M.B.Bahtiyorova
_____________________
Rahbar: PhD. H.Ergasheva
_____________________

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o’tdi. Kafedraning__ sonli bayonnomasi. “____” ____________2019 yil.

Namangan – 2019.

**MUNDARIJA**

KIRISH……………………………………………………………………………..3
I BOB. АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ…………………………………………………6
1.1. “O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi” га киритилган ўсимликларнинг ўрганилганлиги...........................................................................................6
1.2. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi” to‘g‘risidagi qarorida келтирилган umumiy qoidalar........................................................................................9
II BOB. QIZIL KITOB HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT. ..............................15
III BOB. FARG'ONA VODIYSINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI «QIZIL KITOBI»GA KIRITILGAN O’SIMLIKLARI TAHLILI....................................19
3.1. Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarning bioekologik xususiyatlari…………19
3.2. Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarning hayotiy shakllari. ............................73
3.3. Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarning kamyoblik darajasi bo’yicha kategoriyalari. .....................................................................................76
3.4. O‘zbekiston Respublikasi qizil kitobiga Farg‘ona vodiysidan kiritilgan o‘simlik turlarining tahlili……………………..................................................80
XULOSA.................................................................................................86
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR……………………………………82

“Qizil Kitob” - bu hujjat bo’lib u insonning vijdonidir. Har qaysi millat dunyo oldida o’zining tabiat boyliklarini asrash mas'uliyatini olgan`. (Xalqaro Qizil Kitobdan)

## Kirish

Qadim zamonlardan beri insoniyat oz tevarak atrofidagi tabiat bilan uyg’unlikda yashab kelgan. U tabiatni - Ona tabiat deb atagan va unga ehtiyotkorona munosabatda bo’lgan. Vaqt o’tishi bilan sanoatning rivojlanishi, insoniyatning ehtiyojlari ortishi natijasida tabiat ne‘matlariga bo’lgan munosabat ham ozgarib borgan [15]. Natijada so’nggi asrlarda inson va tabiat orasidagi muvozanat buzilib, tabiatdagi ayrim hayvonot va o’simliklarning yo’qolib ketishi jadallashdi. Buning oldini olish maqsadida 1979 yilda O’zbekiston Qizil kitobi ta‘sis etildi.

**Mavzuning dolzarbligi** O’zbekistonda yovvoyi holda o’sadigan o’simliklar soni qariyb 4500 ga yetdi. Shulardan 577 tasi shifobaxsh xususiyatga ega. Bular orasida jumhuriyatimiz hududida ma‘lum sharoitlardagina uchraydigan yer sharining boshqa floristik viloyatlarida o’smaydigan, fan olamida endem tur deb yuritiladigan 390 turi bo’lib, ular Respublikamizning bebaho milliy boyligi hisoblanadi.

Ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan dorivor preparatlarning qariyb 50 foizi o’simliklardan ajratib olinadi yoki ulardan tayyorlanadi. Tabobatda katta ahamiyatga ega bo’lgan alkaloidlar, saponinlar, efir moylari va boshqa moddalar ham o’simliklardan olinadi, yana turli dorilar, preparatlar va vitaminlarga boy konsentratlar tayyorlanadi. Bundan tashqari o’simliklardan turli oshlovchi, bo’yoqbop va boshqa sanoat mahsulotlari olinadi [21].

Respublika hukumati ba‘zi bir yovvoyi o’simlik turlarini yig’ishni tartibga solish maqsadida o’simliklardan bir qancha turini O’zbekiston ‘Qizil Kitobi’ ga kiritishga qaror qildi.

Farg’ona vodiysi hududida ham keyingi yillarda qishloq xo’jaligi va sanoat qurilishi ishlarining jadal sur‘atda olib borilishi tabiatga, shu jumladan o’simliklar olamiga ham o’z ta‘sirini ko’rsatmoqda. Ayniqsa juda kam uchraydigan endem va relikt (qadimgi davr florasiga oid turning ma‘lum joylarda qoldiq holda saqlanayotganligi) turlar o’sadigan sharoitlar o’zlashtirilishi natijasida ular tez orada butunlay yo’qolib ketish xavfi tug’ilmoqda [18].

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Bitiruv malakaviy ishning maqsadi Farg’ona vodiysining o’simlik qoplamida tarqalgan Qizil kitobga kiritilgan ayrim o’simliklarning hozirgi holatini o’rganish hamda ularning bioekologik xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

“O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi” to‘g‘risidagi umumiy qoidalarni o’rganish;

- Farg’ona vodiysida tarqalgan Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarning bioekologik xususiyatlarini o’rganish;
- Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarni hayotiy shakllarini fniqlash;
- Farg’ona vodiysining Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarni kamyoblik darajasi bo’yicha kategoriyalarga ajratish;

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti va predmeti. Farg’ona vodiysidagi Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarning turlari ishining ob’ekti. Floraning biologiyasi, geografiyasi, ekologiyasi, taksonomiyasi ishning predmeti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining ahamiyati.** Bugungi kunda bioxilma-xillikni saqlash butun dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim muammolardan biri bo’lib qolmoqda. Bu borada Respublikamizda ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Farg’ona vodiysining o’simliklar qoplamida uchraydigan Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarni o’rganib, ulardan ayrimlarining bioekologik xususiyatlarini aniqlash va xalq xo’jaligidagi ahamiyatini o’rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi**. BMI kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatini o’z ichiga oladi. Uning umumiy xajmi 84 bet,

shundan matn qismi 13910 so’zdan iborat. Unda foydalanilgan adabiyotlar 38 manbadan tashkil topgan.

# I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI

## 1.1. “O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi” ga kiritilgan o‘simliklarning o‘rganilganligi

O’.Pratov, T.Odilovlarning (1995) ma’lumotlariga ko’ra, O’zbekistonda tarqalgan va Qizil kitobga kiritilgan o’simliklar senopopulyatsiyalarining floristik tarkibi, tarqalishi, kamyoblik darajasi va tuzilishi, bioekologik xususiyatlari va xalq xo’jaligidagi ahamiyati tahlil qilingan. Mualliflarning asarlarida Botanikaga oid nomenklaturalar, zamonaviy sistematik birikmalari va ulardagi o’zgarishlar berilgan.

K.Xojimatov, I.Malsov, V.Karimov, A.Shomaxmudov, X.Xolmatov, Z.Xabibov va N.Olimxo’jaevlarning (1998) asarlarida Qizil kitobga kiritilgan o’simliklar orasidan dorivor o’simliklarni alohida ajratilgan. Ular Qizil kitobga kiritilgan ayrim o’simliklarning senopopulyatsiyalarini o’rganish maqsadida viloyatlaga ekspeditsiyalar tashkil qilganlar. Bunda bu hudud uchun xos bo’lgan qator landshaftlardagi assosiasiyalarda nazorat o’lchov maydonlari - transektalar belgilab olinib, undagi o’simliklarning uchrash darajasi Drude shkalasi bo’yicha baholangan.

D.I. Komilova, J.T. Oltmishevlarning ilmiy maqolalarida Farg‘ona vodiysi florasida 0‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi`ga kiritilgan turlarni o‘rganish maqsadida 2013-2016 yillarda Farg‘ona davlat universiteti ilmiy gerbariysida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildilar. Olib borilgan izlanishlar davomida 200 dan ortiq gerbariy namunalari o'rganildi. Taksonomik birliklarni aniqlanildi [11].

Olimlarni kuzatishlari bo’yicha G`arbiy Tyan-Shan tog`ida yo’q bo’lib ketgan noyob yovvoyi nok daraxti topildi. Toshkent viloyati, Bostonliq tumani, Burchimulla qishlog`ida istiqomat qilayotgan Shoyunusov Shorasul tomorqasida yuz yoshli, yovvoyi nok daraxti, yaxshi saqlangan holda o’smoqda [22]. Bu daraxt O’zbekiston Qizil kitobiga O’rta Osiyo noki (Pyrus asiae mediae) nomi bilan kiritilgan (1979). Bu vaqtgacha, yovvoyi nokni yagona aniqlangan joyi, Toshkent viloyati, Ispay-Mullali qishlogi atrofidagi, Pskom daryosi bo’yidagi vodiy edi.

Yovvoyi nokni mevalari yirik, yuqori hosildor, zamburug`lik kasalliklarga va meva qurtlariga chidamli. Hozirgi vaqtda bu daraxt navini ko’paytirish choralari ko’rilmoqda. Agarda, biz madaniylashtirilgan o’simliklarni avlodi bo’lgan, yovvoyi o’simlik turlarini saqlasak, ularni genlaridan fodalanib serhosil, qurg`oqchilikka va sovuqqa, zararkunandalarga chidamli, navlarini yetishtirishimiz mumkin (O‘zbekiston geografiya portali).

O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan omonqora, yetmak, bozulbang kabi dorivor o‘simliklar, tabiiy holda o‘sayotgan Turkiston arslonquyruq turini madaniylashtirish, qizil exinatseyaning madaniy plantatsiyalarini kengaytirish va dorivor o‘simliklar yetishtirish hajmini yiliga 4 ming tonnadan 5 ming tonnagacha yetkazish rejalashtirilgan [25]. Amalga oshirilayotgan bu kabi chora-tadbirlar tufayli milliy va xalqaro “Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simliklarning ayrim turlarini ko‘paytirishga muvaffaq bo‘linmoqda. Qizil kitob haqida yana bir muhim joyi bo’lib, Qizil kitobning sahifalari hech qachon tugallanmaydi, doimo uning sahifalarini yangi o’simlik turlari va hayvon zotlari to’ldirilib boradi. Qizil Kitobning sahifalarini qisqartirish uchun inson madaniyati va hulqini doim oshira borish kerak, bu olimlar oldida qo’yilgan muhim muammolardan biridir (S.Axmedov).

K.Sodiqov (2016) O'zbekiston florasining yo'qolib ketish xavfi ostida turgan 163 turi `Qizil kitob`ning 1984 yilgi nashriga kiritilgan va ushbu turlaming taqdiri bilan respublika mutaxassislari, olimlari muttasil shug'ullanib kelmoqdalar. O'tgan yillar mobaynida olib borilgan kuzatishlar ayrim o'simlik turlarining soni va maydoni ancha kengayganligini ko'rsatdi. Masalan, anzur va Suvorov piyozlari oldingi xolatiga kelmagan bo'lsada, ma’lum darajada ko'paydi. Eng kamyob o'simliklardan sanalgan Minkvits teziumi nomli o'simlik turning soni 7 tadan 17 tagacha yetdi. Qurama tizmasida kamyob o'simliklardan hisoblangan Korovin shirachining mavjudligi aniqlandi. Ayni vaqtda ayrim o'simlik turlarining soni keskin qisqarib ketgan. Omonqora o'simligi, piskom piyozi, Margarita marmaragi kabilar shular jumlasidandir [28].

O‘zbekiston florasining yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan 163 turi “Qizil kitob”ning 1984 yilgi nashriga kiritilgan. Shuni esda tutish kerakki, “Qizil kitob” ning birinchi jildi (tomi) hayvonlar bo‘yicha bo‘lib, 1983 yilda nashr qilingan. 1998 yilga kelib, O‘zbekiston “Qizil kitobi” ga kiritilgan o‘simlik turlarining soni 301 taga yetdi. 2009 yilda nashr etilgan O‘zbekiston Respublikasining `Qizil kitobi` ga esa 321 ta o‘simlik va 3 ta zamburug‘ turlari kiritilgan. O‘simlik dunyosini muhofaza qilish jarayonida keng omma ishtirok etgan taqdirdagina ijobiy natijalarga ega bo‘lish mumkin. Shundagina, biz kelgusi avlodlar uchun nabotot olamining bebaho boyligini saqlab qoldirgan bo‘lamiz [12].

Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar o'lkamiz florasidan yana 138 o'simlik turini `Qizil kitob`ga kiritish lozimligini ko'rsatdi. Shunday qilib, 1998 yilga kelib, O'zbekiston `Qizil kitob`iga kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 taga yetdi [10].

Bugungi kunda O'zbekistonda 4500 dan ortiq o'simlik turlari o'sadi. Uning 3000 dan ortig'i yovvoyi holda o'suvchi turlar bo'lib, 9 foizi endemik, kamyob yoki yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simliklardir. Yovvoyi holda o'suvchi o'simlik turlarning 324 tasi O'zbekiston `Qizil kitobi`ga kiritilgan bo'lib tabiiy boyliklardan foydalanishni tashkil etish va boshqarishda tabiat qonunlarini bilish, uni hisobga olish hamda unga amal qilish har bir mintaqadagi ekologik holatning eng muhim ko'rsatkichi bo'lib, ekologiyaga zarar etkazuvchi faoliyatga yo'l qo'ymaslikning muhim shartidir [14].

X.Jabborova (2013) ma’lumotlarida keltirilishicha, turlarning hosil bo'lishi va ularning yo'qolib ketishi sababi evolyutsion taraqqiyot jarayoni bo'lib, yerda geologic sharoitlarning o'zgarishiga ham bog'liqdir. Ammo odamning kelib chiqishi natijasida bu tabiiy jarayon buzila boshladi, hayvon va o'simliklarning antropogen ta’sirlari natijasida yo'qolib borish jarayoni tezlasha boshladi. Odam tomonidan yangi yerlarning, orollarning va kontinentlarning o'zlashtirilishi natijasida butun sayyora masshtabida fauna va floraning xilma-xilligi tobora kamayib borish jarayoni kuzatilmoqda. Turlarning qirilishi qadim zamonlardayoq boshlangan edi. O'n minglab yillar ilgari ovchilar tomonidan mamontlar, qalin

junli karkidonlar, gigant bug'ular, g'or arsloni va ayiqlari va o‘simliklarning bir qancha turlari qirilib ketdi. Hozirgi biz yashab turgan davrda turlarning yo'qolib ketish jarayoni juda jadallik bilan davom etmoqda.

## 1.2. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi” to‘g‘risidagi qarorida keltirilgan umumiy qoidalar (2016-yil 14-iyul 20-son)

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Qizil kitob O‘zbekiston Respublikasi hududida doimo yoki vaqtincha, quruqlikda, suvda, atmosferada yoki tuproqda tabiiy erkinlik holatida yashaydigan hayvonlar (umurtqali va umurtqasiz hayvonlar) hamda tabiiy muhitda o‘sadigan o‘simliklar (yuqori va tuban o‘simliklar), shuningdek qo‘ziqorinlarning (bundan buyon matnda hayvonlar va o‘simliklar deb yuritiladi) kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlari (kenja turlari) ro‘yxati, ularning holati va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmui hisoblanadi [9].

2. Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o‘simliklar turlarining (kenja turlari) nobud bo‘lishi, miqdori kamayib ketishi yoki ularning yashash muhiti buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

3. Qizil kitob unga kiritilgan hayvon va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarini (kenja turlarini) muhofaza qilish, saqlash, tiklash va takror etishtirishga qaratilgan dasturlar (harakat rejalar)ni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

4. Qizil kitobni yuritish bo‘yicha ishlar O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi Hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish respublika davlat inspeksiyasining budjetdan tashqari jamg‘arma mablag‘lari hamda O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi huzuridagi Tabiatni muhofaza qilish respublika jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

2-bob. Qizil kitobning tuzilishi

5. Qizil kitob ikki tomdan iborat bo‘ladi.

6. Birinchi tom “O‘simliklar va qo‘ziqorinlar” deb nomlanib, ikki bo‘limdan tomirli o‘simliklarga oid hamda qo‘ziqorinlarga oid bo‘limlardan iborat bo‘ladi.

7. Ikkinchi tom “Hayvonlar” deb nomlanib, oltita bo‘limdan umurtqasizlar, baliqlar, quruqlik, hamda suvda yashaydiganlar va sudralib yuruvchilar, qushlar hamda sut emizuvchilar bo‘limlaridan iborat bo‘ladi.

Bo‘limlar Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o‘simliklar turlari (kenja turlari) soniga qarab, ularning sinflari, turkumlari, oilalari va zotlari bo‘yicha kichik bo‘limlarga bo‘linishi mumkin.

8. Har bir bo‘limda (kichik bo‘limda) Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o‘simliklar turining (kenja turining) ta’rifi hamda tavsifi ko‘rsatilib, turlar bo‘yicha alohida-alohida tizimli tartibda joylashtiriladi.

Bo‘limda (kichik bo‘limda) hayvonlar va o‘simliklar turining (kenja turining):

nomi (lotin, o‘zbek, ingliz va rus tillarida);

maqomi (yo‘qolib ketish xavfi toifasi);

tasviri;

O‘zbekiston Respublikasida va dunyoda tarqalganligi haqida ma’lumotlar;

yashash (o‘sish) joyi va tarzi, asosiy limitlashtiruvchi omillari hamda arealining (yashash hududi) o‘zgarishi sabablari;

soni va uning o‘zgarishga moyilligi;

muhofaza qilinishiga doir qabul qilingan va zaruriy chora-tadbirlar;

sun’iy ko‘paytirilishi imkoniyatlari haqida ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

9. Qizil kitobga uning mazmun-mohiyatini yorituvchi qo‘shimcha materiallar uning ilovasi sifatida rasmiylashtirilish mumkin.

## 3-bob. Qizil kitobni yuritish

10. Qizil kitobni yuritish O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston milliy universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi ishtirokida O‘zbekiston

Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

11. Qizil kitob vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlar bazasi sifatida elektron shaklda yuritiladi va keyinchalik ilmiy-ommabop nashr sifatida chop etiladi.

Qizil kitobning elektron shakli O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

12. Qizil kitobni yuritish quyidagi asosiy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

hayvonot dunyosini hamda o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastri va davlat hisobi;

hayvonlar va o‘simliklar holatining davlat monitoringi;

hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlari (kenja turlari) bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;

hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarining (kenja turlarining) holatini tahlil qilish;

hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarining (kenja turlarining) maqomini baholash;

hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarini (kenja turlarini) Qizil kitobga kiritish;

hayvonlar va o‘simliklarning kamyob yoki yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lmagan turlarni (kenja turlarini) Qizil kitobdan chiqarish;

Qizil kitobning nashr etilishini ta’minlash.

13. Hayvonot dunyosi hamda o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastri va ularning hisobi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-sentabrdagi 343-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi hayvonot dunyosining davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

14. Hayvonlar va o‘simliklar holatining davlat monitoringi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 3-apreldagi 111-son qarori bilan tasdiqlangan

O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

15. Hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlari (kenja turlari) bo‘yicha ma’lumotlar bazasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan yuritiladi.

16. Hayvonlar va o‘simliklar turlarining (kenja turlarining) holatini tahlil qilish va ularni Qizil kitobga kiritish yoki undan chiqarish haqidagi tavsiyalarni ishlab chiqish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 9-martdagi 109-son “O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi” to‘g‘risida”gi qaroriga asosan tuzilgan O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi huzuridagi “O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi”ni yuritish bo‘yicha idoralararo komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

“O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi”ni yuritish bo‘yicha idoralararo komissiyasi taqdimi bo‘yicha hayvonlar va o‘simliklarni Qizil kitobga kiritish yoki undan chiqarish to‘g‘risidagi qaror O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan holda qabul qilinadi.

17. Qizil kitobga hayvonlar va o‘simliklarning (akklimatizantlar (iqlimlashtirilganlar) bundan mustasno) kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlari (kenja turlari) kiritiladi.

18. Hayvonlar va o‘simliklarning turlari (kenja turlari):

tarqalishi cheklanganda yoki soni kamligida;

10 yil yoki davomiyligi bo‘yicha 10 yildan ko‘proq bo‘lganda uch avlod davomida har yili ularning soni va (yoki) areali (o‘simlik yoki hayvonlarning biror bir turi tarqalgan joylar) qisqarganda;

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining (International Union for Conservation of Nature) Qizil ro‘yxatiga kiritilganda ular kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlar va o‘simliklar turlari (kenja turlari) deb e’tirof etiladi.

19. Hayvonlar va o‘simliklar turlari (kenja turlari va populyatsiyalari) ularning soni qayta tiklanganda va genofondi saqlanishiga xavf tug‘dirmaydigan darajagacha ko‘payganda, yashash hamda o‘sish sharoiti tiklanganda, ular Qizil kitobdan chiqariladi.

20. Zarurat bo‘lganda, Qizil kitobga kiritiladigan hayvonlar va o‘simliklarning har bir turi (kenja turi) “tur” taksonomik (turlar tizimi) darajasidan quyi darajasi ham belgilanishi mumkin.

21. Qizil kitobga kiritilayotgan hayvonlar va o‘simliklar turlarining (kenja turlarining) maqomi Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining (International Union for Conservation of Nature) Qizil ro‘yxatida nazarda tutilgan toifalar va mezonlariga asosan ularning yo‘qolib ketish xavfi darajasiga qarab quyidagicha toifalanadi:

yo‘q bo‘lib ketgan;

tabiatda yo‘q bo‘lib ketgan;

butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan;

yo‘q bo‘lib ketayotgan;

zaif, qisqarib borayotgan;

zaifga yaqin;

xavotir tug‘dirmaydigan;

ma’lumotlar (yetarli bo‘lmaganlar) etishmaslik.

22. Hayvonlar va o‘simliklar turlarining (kenja turlarining) populyatsiyasi soni, kamayish dinamikasi, tarqalishi va o‘sish (yashash) muhiti sharoitlarining o‘zgarishi haqidagi hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar ularni Qizil kitobga kiritish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

23. Qizil kitobga hayvonlar va o‘simliklarning turlarini (kenja turlarini) kiritish va undan chiqarish Qizil kitobga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali amalga oshiriladi.

24. Qizil kitobga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

25. Qizil kitobga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi lozim.

26. Qizil kitobga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning barcha hayvonot va o‘simlik dunyosidan foydalanuvchilar hamda hayvonot va o‘simlik dunyosidan foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi tashkilotlar e’tiboriga yetkazilishi O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan ta’minlanadi.

27. Qizil kitob 10 yilda kamida bir marta ilmiy-ommabop nashr sifatida chop etiladi.

28. Qizil kitobni nashr etishga tayyorlash O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

29. Qizil kitobning ilmiy-ommabop nashri maketi hamda matni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

30. Ilmiy-ommabop nashrning tiraji hamda uni tarqatish shartlari O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

31. Ilmiy-ommabop nashr sifatida chop etilgan Qizil kitobning ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

## 4-bob. Yakuniy qoidalar

32. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

33. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Fanlar akademiyasi bilan kelishilgan.

# II BOB. QIZIL KITOB HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT

Atrof muhitni, o’simliklar olamini muhofaza qilish insoniyat uchun juda katta hayotiy ahamiyatga ega. Kishilar tabiatdan foydalanib, uning asrlar davomida tashkil topgan tabiiy manzarasini o’zgartirmoqda, unga salbiy ta‘sir ko’rsatmoqda. Sanoat tarmoqlari va qishloq xo’jaligining rivojlanib borishi va tabiiy maydonlarning keng miqyosda o’zlashtirilishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmokda. Natijada o’simliklarning kamayib ketish xavfi tug’ilmokda. Bu esa o’simliklar dunyosidagi genofondning kamayishiga sabab bo’lmokda. Har qanday turning yo’qolishi uni tiklab bo’lmaydigan oqibatlarga olib keladi, binobarin, yovvoyi o’simliklar qishloq xo’jaligida ekiladigan madaniy navlarni barpo etishda manba sifatida juda katta rol o’ynaydi.

O’zbekiston Respublikasi hududida hozir 4500 ga yaqin yovvoyi o’simlik va 2000 dan ziyod zamburg’ turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko’pgina kamyob, endem va relikt turlar ham bor. Bunday turlarning soni 400 atrofida bo’lib, ular O’zbekiston florasining 10-12 foizini tashkil etadi.

Respublika qo’riqxonalarida muhofaza qilinayotgan o’simliklarning umumiy holati nisbatan yaxshi bo’lishiga qaramay, ko’plab yovvoyi turlarning tabiiy zaxiralari keskin kamayib ketmoqda. Dunyoga dong’i ketgan lola va sallagullar, qimmatbaho o’simlik - yetmak, dorivor o’simlik - bozulbang kabilar keyingi yillarda butunlay kamayib ketdi. Bir qancha turlar yo’qolib ketish holatiga kelib qoldi.

Aholining tabiatga noto’g’ri munosabati ham o’simliklarning kamayib ketishiga sabab bo’lmoqda. Ayniqsa shahar va qishloqlar atrofidagi qizil lola, sallagul, shirach va shunga o’xshash nafis gulli o’simliklar juda kamayib ketgan.

Tabiatga, o’simliklar dunyosiga nisbatan noto’g’ri munosabatda bo’lishga chek qo’yish, tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ko’paytirish hammamizning asosiy burchimiz.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, atrof muhitni, hayvonot va o’simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e‘tibor berildi. 1992 yil 9

dekabrda -Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida, 1993 yil 7 mayda -Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risida, 1997 yil 26 dekabrda -O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida‖ va nihoyat 1999 yilda O'rmon haqida‖gi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar barcha o'simliklar turlarini saqlab qolish, ularni asrab-avaylash va muhofaza qilishda muhim hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston -Qizil kitob‖i 1979 yilda ta'sis etildi. -Qizil kitob nabotot olamining kamyob, yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlari haqida mukammal ma'lumot beradi. Uning vazifasi jamoatchilik va davlat idoralarini tabiat muhofazasi masalasiga jalb etishdan va turlar genofondini saqlab qolishga ko'maklashishdan iborat.

O'zbekiston florasining yo'qolib ketish xavfi ostida turgan 163 tur o'simlik Qizil Kitob`ning 1984-yilgi nashriga kiritilgan, Qizil Kitob`da esa (1998) kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 taga yetdi. Qizil kitobga kiritilgan turlarning taqdiri bilan respublika mutaxassislari, olimlari muttasil shug'ullanib kelmoqdalar. O'tgan yillar mobaynida olib borilgan kuzatishlar ayrim o'simlik turlarining soni va maydoni ancha kengayganligini ko'rsatdi. Masalan, anzur va Suvorov piyozlari oldingi holatiga kelmagan bo'lsa-da, ma'lum darajada ko'paydi. Eng kamyob o'simliklardan sanalgan Minkvits teziumi nomli o'simlik turining soni 7 tadan 17 tagacha yetdi. Qurama tizmasida kamyob o'simliklardan hisoblangan Korovin shirachining mavjudligi aniqlandi. Ayni vaqtda ayrim o'simlik turlarining soni keskin qisqarib ketgan. Omonqora o'simligi, piskom piyozi, Margarita marmaragi kabilar shular jumlasidandir.

Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar o'lkamiz florasidan yana 138 o'simlik turini -Qizil kitob‖ga kiritish lozimligini ko'rsatdi. Shunday qilib, 1998 yilga kelib, O'zbekiston -Qizil kitob‖iga kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 taga yetdi. 2003 yilda 3-nashri bosmadan chiqarilgan. -Qizil kitob‖ning so'nggi 4-nashri 2009 yilda bosmadan chiqarilgan hamda unga o'simlik va zamburug'larning 324 turi kiritilgan.

Qizil kitobga kiritilgan o'simlik turlari Tabiatni muhofaza qilish Halqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan 4 guruhga (kategoriyaga) ajratildi.

**0. Yo'qolgan yoki yo'qolish arafasidagi turlar.** Bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan, lekin ayrim yig'ib olish qiyin bo'lgan joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlanib qolish ehtimoliga ega bo'lgan turlar.

**1. Yo'qolib borayotgan turlar.** Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, saqlanib qolishi uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar.

**2. Kamyob turlar.** Ma'lum kichik maydonlarda o'ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.

**3. Kamayib borayotgan turlar.** Ma'lum vaqt ichida soni va tarqalgan maydonlari tabiiy sabablarga ko'ra yoki insonlar ta'siri ostida qisqarib ketayotgan turlar. Ayni vaqtda, bunday o'simliklar har tomonlama nazorat qilib turishni talab etadi.

O'simlik o'z kamyoblik darajasini u yoki bu tomonga o'zgartirib turishi, ya'ni vaqt o'tishi bilan o'simlik butunlay yo'qolishi yoki ko'payib muhofaza qilish darajasidan chiqib ketishi mumkin.

Qizil kitob‖da har bir turning o'zbekcha, ruscha, lotincha nomlari va ularning qaysi oila hamda turkumga mansubligi ko'rsatilgan. Shuningdek, turlarning qisqacha tavsifi (hayotiy shakli, bo'yi, shox-shabbasi, bargi, guli, mevasi va fenologiyasi), tarqalishi va chizma xaritada uchraydigan joylari keltirilgan. Tabiiy sharoitda o'stirish usullariga ham to'xtab o'tilgan. Ba'zi hollarda muayyan turni tajriba maydonlarida yoki sanoat asosida yetishtirish imkoniyatlari bayon etilgan. Muhofaza choralari masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Turlarga tavsif berilganda adabiyot va gerbariy ma'lumotlaridan hamda ko'p yillik kuzatish natijalaridan foydapanilgan. Unda oilalar, turkumlar va turlar alfavit tartibida berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi (oldingi Botanika ilmiy-ishlab chiqarish markazi) ilmiy xodimlarining Qizil kitob chiqqandan keyingi 8 yil ichida

viloyatlar bo’yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari tufayli respublika Qizil kitobiga ayrim o’zgarishlar kiritildi. Jumladan, tabiatda nisbatan ko’payganligi va arealining kengayganligi sababli Korolkov za‘faroni, Noksimon normushk, Suvorov piyozi, Anzur piyoz Qizil kitobdan chiqarildi. Aksincha, yuksak o’simliklardan kamyobligi aniqlangan 6 tur va zamburug’lardan 5 tur ilk bor Qizil kitob‖ga kiritildi. Tabiatda ancha ko’payganligi munosabati bilan 7 tur 2-guruh (kategoriya) dan 3-guruhga o’tkazildi. Izlanishlar tufayli 10 turning boshqa tog tizmalarida va o’ziga xos ekologik sharoitlarda ham o’sishi aniqlandi. Botanika nomenkpaturasi qoidalariga binoan Petilium turkumi Fritillaria, Melanthaceae oilasi Colchicaceae deb qabul qilindi.

Qizil kitobning nashr etilishi mutaxassislar, davlat idoralari hamda jamoat tashkilotlari oldiga qo’riqxonalar va buyurtmaxonalarni kengaytirish, yovvoyi o’simliklarni sotishni taqiqlash, xom ashyo uchun yig’iladigan o’simliklarga litsenziyalar joriy etish kabi bir qancha masalalarni qo’yadi.

O'simlik dunyosini muhofaza qilishda keng omma ishtirok etgan taqdirda ijobiy natijalar beradi. Shundagina biz kelgusi avlodlar uchun nabotot olamining bebaho boyligini saqlab qoldirgan bo’lamiz.

# III BOB. FARG'ONA VODIYSINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI «QIZIL KITOBI»GA KIRITILGAN O’SIMLIKLARI TAHLILI

## 3.1. Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarning bioekologik xususiyatlari

Farg'ona vodiysi boyicha 0‘zbekiston respublikasi «Qizil kitobi»ga 48 tur kiritilgan, quyida ularning bioekologiyasi keltirilgan.

**1. (1-qizil kitobga kiritilgan nomer) Knorring isfaragi Delphinium knorringianum V. Fedtsch.**

Maqomi 2. Oloy tizmasidagi kichik maydonda tarqalgan kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Buyi 35-45 sm ga etadigan uq ildizli, ko‘p yillik o‘t. Barglari, asosan, poyasining pastki qismida joylashgan. Bargbandi uzun, pastki qismi biroz kengaygan, yaprog‘i yumaloq-buyraksimon, 5 ta panjasimon bo‘lakka ajralgan, bo‘laklari teskari tuxumsimon, ular dam, o‘z navbatida, biroz qirqilgan. Poyasi kamshox, 5-7 gulli. Gulkosasi och binafsha rangli, keng ellips-tuxumsimon, pixlari ingichka, uzunligi 2,5 sm, uchi ikkiga ajralgan. Iyun oyida gullab, iyul oyida meva tugadi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: SHoximardon daryosi havzasi, shuningdek, Qirgizistonda dam uchraydi (O‘sh viloyati).

O‘sish sharoiti. Tog‘larning pastki va o‘rta qismidagi yonbagirlarda va qoyalarda o‘sadi.

Soni. Tabiatda yakka-yakka yoki tup-tup bo‘lib o‘sadi. Umumiy soni aniqlanmagan.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Ma’lumotlar yo‘q.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q.

Muxofaza choralari. Maxsus muxofaza choralari ishlab chiqilmagan. O‘simlikning umumiy sonini aniqlash, tabiatda va botanika bog‘larida bioekologik xususiyatlarini o‘rganish tavsiya etiladi.



1- rasm. Knorring isfaragi Delphinium knorringianum V. Fedtsch.

**2 (2). Ok parpi - Aconitum talassicum Popov**

Maqomi 3. Tyan-SHan va Pomir-Oloy tizmasidagi son jidatdan qisqarib borayotgan, areali bo‘lingan endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 1,5 m ga etadigan, ko‘p yillik, tugunak ildizpoyali o‘t. Ildizpoyasi tugunaklarning yonma-yon qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Poyalari oddiy, tik o‘suvchi. Poyaning yuqori qismidagi barglari bandsiz, qolganlari bandli, yaprog‘i asosigacha yirik tishli bo‘laklarga ajralgan. YOrqin ko‘kimtir rangli gullari poyaning yuqori qismida yirik shokila hosil qiladi. Iyun-iyulda gullab, mevasi iyul-avgust oylarida etiladi.

Tarqalishi. Toshkent, Farg‘ona, Jizzax, Kashqadaryo viloyatlari: Piskom, CHotqol, Qurama, Farg‘ona, Turkiston, Zarafshon, Xisor tizmalarida tarqalgan. Tojikistonda, Kozog‘iston va Qirgizistonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tog‘larning o‘rta va yuqori qismlaridagi nam erlarda va yonbagirlardagi buloqlarning atroflarida o‘sadi. Ba’zan buloq bo‘ylarida kichik bo‘tazorlar hosil qiladi.

Soni. Bo‘tun areali bo‘ylab bir-biridan ancha uzoq joylashgan uncha katta bo‘lmagan tuplar hosil qiladi.

Ko‘payishi. O‘rug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabab-lari. Xalq tabobatida dorivor o‘simlik sifatida ishlatiladi.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida o‘stiriladi.

Muxofaza choralari. CHotqol, Zomin qo‘riqxonalarida, Ugom-CHotqol va Zomin milliy tabiat bog‘larida o‘stiriladi.




2- rasm. Ok parpi - Aconitum talassicum Popov

**3 (7). Olga inkarvilleyasi -Inkarvilleya Olgi - Incarvillea olgae Regel**

Maqomi 3. Pomir-Oloydagi juda kamyob, yo‘qolib ketish arafasidagi qadimgi tur.

Qisqacha tavsifi. Ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik, bo‘yi 1,5 m ga etadi. Poyasi uncha ko‘p emas, tik o‘sadi. Barglari oddiy, uzunligi 6-10 sm, patsimon qirqilgan. Gullari o‘simlikning uchidagi ruvaksimon tupgullarda o‘rnashgan. Kosachasi tuksiz, uzunligi 3-4 sm, keng uchburchak tishchali. Gultoji voronkasimon, yirik, besh bo‘lmali, pushti to‘q qizil rangli, ba’zan oq, uzunligi 4 sm, tashqi tomoni tuksiz, ichki tomoni siyrak tukli. CHangchilarining iplari tuksiz, changdoni ikki qanotchali, siyrak tukli. Urug‘doni uzun, tuksiz ustunchali. Mevasi ko‘p urug‘li, chuzikroq, po‘sti qalin, uzunligi 5-10 sm, eni 1 sm keladigan sal qayrilgan yoysimon ko‘sakcha. Urug‘i 1 sm gacha uzunlikda, yarim pardasi mon, oq kanotchali. Iyun-avgust oylarida gullab, avgust-sentyabrda meva tugadi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Pomir-Oloy (Oloy tizmasi) ning Sux va SHoximardon daryolari havzasida tarqalgan. O‘zbekistondan tashqari Qirgiziston va Tojikistonda ham tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Adir va tog‘larda 1500-2500 m balandlikdagi mayda chag‘ir toshli, toshli yonbag‘irlarda shag‘alli daryo uzanlarida o‘sadi.

Soni. Kichik xurudlar hosil kilib o‘sadi. Populyasiyalariningumumiy soni aniklanmagan.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Antropogen omillar ta’sirida va chorva mollari boqilishi tufayli kamayib ketgan.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida 1961 yildan buyon muvaffakiyatli o‘stirilmokda.

Muxofaza choralari. Muxofaza kilinmaydi.



3- rasm. Olga inkarvilleyasi -Inkarvilleya Olgi - Incarvillea olgae Regel

**4 (12). Boris astragali -Astragal borisa - Astragalus borissianus Gontsoh.**

Maqomi 1. Oloy tizmasidagi kamyob endemik tur.

Qisqacha tavsifi. Buyi 30 sm, deyarli poyasiz yoki juda qisqa poyali, barg qoldiqlari bilan o‘ralgan ko‘p yillik o‘simlik. Bargi 10-23 sm uzunlikda, bargchalari 10-13 juft, cho‘zik, ellips shaklida yoki o‘tkir nashtarsimon, uzunligi 7-15 mm, qattiq, yaprokchalarining har ikki tomoni yotiq oq tukli. Gul popuklari qisilgan, qisqa, 6 gulli. Dukkagi bandsiz, chuziq tuxumsimon, 14-15 mm uzunlikda, qattiq, xurpaygan oq tuklar bilan qoplangan, ikki uyali. Iyunda gullab, mevasi avgustda etiladi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Oloy tizmasining SHoximardon daryosi xavzasida tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Archazorlarda va toshli tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka holda uchraydi.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Aniqlanmagan.

Madaniylashtirilishi. Bu hakda ma’lumotlar yo‘q.

Muxofaza choralari. Maxsus chora-tadbirlar ishlab chikilmagan.




4- rasm. Boris astragali -Astragal borisa - Astragalus borissianus Gontsoh.

**5 (17). Zarxal astragal -Astragal pozolochennыy - Astragalus auratus Gontsch.**

Maqomi 2. Oloy damda Turkiston tizmalarida o‘sadigan kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Buyi 15 sm ga etadigan deyarli poyasiz ko‘p yillik o‘t. Pastki barglari oddiy, yakka, yuqoridagilari esa ikki juftli, bargchalari teskari tuxumsimon, har ikki tomoni yotiq tukli. Gulpoyasi bargiga deyarli teng, 6-8 gulli, gullari och qizil. Iyulda gullab, urug‘ beradi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Oloy tizmasining dengiz satdidan 1600-1800 m balandlikdagi SHoximardon, Kuli Kubbon, YOrdon qishloqlari atrofida,

Uvlardisoyda hamda Sux, Peshkao‘t daryolarining havzalarida tarqalgan. Tojikistonda va Qirg‘izistonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Toshli quruq qiyaliklarda, ola tuprokli yonbag‘irlarda, toshloqlarda va surilmalarda o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka dolda uchraydi, ba’zan kichik-kichik tuplar hosil kilib o‘sadi. Asosan, SHoximardon, Sux damda Peshkao‘t daryolari havzalarida ko‘proq saqlanib qolgan.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. CHorva mollarining ko‘plab boqilishi tufayli o‘simlik maydonlari keskin qisqarib ketgan.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘k.

Muhofaza choralari. Muhofaza kilinmaydi.



5- rasm. Zarxal astragal -Astragal pozolochennыy - Astragalus auratus Gontsch.

**6 (18). Ikkirang astragal -Astragal dvuxsvetkovovidnыy – Astragalus dianthoides Boriss.**

Maqomi 2. Oloy tizmasida tarkalgan kamyob endemik tur.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 3-4 sm keladigan, yotiq qalin tuklar bilan qoplangan, deyarli poyasiz, ko‘p yillik o‘t. Bargi 1-2 sm uzunlikda, barg bandi ingichka, uzunligi 2-5 mm, bargchalari 4-5juft, chuzik, uzunligi 2-7 mm, eni 1 mm, ikkala tomoni qalin tukli. Gulpopugi 2-3 gulli. Kosachasi naysimon, uzunligi 12-16 mm. Tojbargi sariq, ba’zan qizgish rangda. Dukkagining uzunligi 20-25 mm, eni 3 mm,

uchiga va tubiga qarab toraygan, tumshukchasi qisqa, kundalang tomirli, mayda yotik tukli, ikki tomonidan kisilgan. Aprel oyida gullab, aprel-may oylarida urug‘ beradi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Oloy tizmasining CHimyon, SHohimardon, Sadqoq, Vodil, Oqbilol, Qadamjoy va Sux qishloqlari atroflarida tarqalgan. Qirgizistonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tog etaklaridagi jarliklarda, shag‘alli bo‘z tuproqlar va konglomerat tog jinslarida o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka holda uchraydi.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Aniklanmagan.

Madaniylashtirilishi. Bu hakda ma’lumotlar yo‘k.

Muhofaza choralari. Muhofaza kilinmaydi.



6- rasm. Ikkirang astragal -Astragal dvuxsvetkovovidnыy - Astragalus dianthoides Boriss.

**7 (32). YUlingan astragal -Astragal oborvannыy -Astragalus rhacodes Bunge**

Maqomi 2. Oloy tizmasida o‘sadigan kamyob o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Pastki qismi yog‘ochsimon yarim bo‘tacha. Bargining uzunligi 7-12 sm, barg bandininguzunligi esa15-17 sm,oq tuklar bilan qoplangan. Gulpoyasining uzunligi bargiga teng, ba’zan esa undan sal uzunroq. Gulpopugi

momiq va g‘ovak, 10-25 gulli. Kosachasi mevalagan paytida shishadi. Guli sariq. Dukkagi yarim dumaloq yoki chuziq yarim tuxumsimon shaklda. May-iyun oyida gullab, mevasi iyun-iyulda etiladi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Oloy tizmasida (SHoximardon, Sadqoq, Qiziltog‘ kishloklari atroflarida) tarqalgan. Qirgizistonda xam uchraydi.

O‘sish sharoiti. Dengiz satxidan 12001600 m balandlikdagi tog yonbag‘irlarida qizil qumtoshlarda, mayda jinsli va shag‘alli tuproklarda o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka xolda yoki bir nechta tup o‘simlikdan tashkil topgan kichik tuplar hosil kilib o‘sadi.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. YAngi erlarning o‘zlashtirilishi va ko‘plab chorva mollarining boqilishi uning ko‘payishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmokda.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida o‘stirilgan.

Muhofaza choralari. Maxsus muhofaza choralari ishlab chikilmagan. Tabiatda kamayib ketish sabablarini aniqlash uchun uning biologiyasini va ekologiyasini o‘rganish lozim.



7- rasm. YUlingan astragal -Astragal oborvannыy -Astragalus rhacodes Bunge

**8 (36). Qizg‘ish astragal - Astragal krasnovatыy - Astragalus rubellus Gontsch.**

Maqomi 1. Farg‘ona vodiysidagi nixoyatda kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 35 sm gacha etadigan oq momiq tukli, poyasiz, ko‘p yillik o‘t. Bargi 30-35 sm uzunlikda, xurpaygan qalin tukli, bargchalari 14-18 juft, yumaloq-tuxumsimon. Gulpoyasi 15 sm uzunlikda, qisqa xurpaygan qalin tukli. Gulpopugi 11-18 sm, 8-15 ta qizil gullardan tarkib topgan. Dukkagi shishgan, tuxumsimon, uzunligi 2 sm, qayishsimon, sirti burtik chokli. Aprel-may oylarida gullab, mevasi may-iyunda etiladi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Farg‘ona vodiysining YOzyovon cho‘lida, Qo‘qon shahri atrofidagi bo‘z erlarda va Qoraqalpoq qishlog‘i tevaragida o‘sadi.

O‘sish sharoiti. Qum uyumlari orasida, sho‘rlangan qumlarda ko‘proq o‘sadi.

Soni. Juda kam uchraydigan tur. U faqat o‘zlashtirilmay qolgan qum uyumlari orasidagina saqlanib qolgan.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Qishloq xo‘jaligi uchun o‘zlashtirilgan maydonlar hisobiga arealida o‘zgarishlar yuzaga kelib, soni keskin kamayib ketgan.

Madaniylashtirilishi. Bu hakda ma’lumot yo‘k.

Muxofaza choralari. Maxsus muxofaza choralari ishlab chikilmagan.



8- rasm. Qizg‘ish astragal - Astragal krasnovatыy - Astragalus rubellus Gontsch.

**9 (41). Janubiy Farg‘ona astragali - Astragal yujnoferganskiy - Astragalus austroferganicus Kamelin et R. M. Vinogr.**

Maqomi 0. Farg‘ona vodiysidagi nixoyatda kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Ko‘p yillik o‘t, bo‘yi 10-20 sm. Poyasi ingichka, oq tukli. Bargi 1-2-3 juft bargchali, uzunligi 1-2-6 sm, yaprokchalari yumalok. Kosachasi 12-18 sm uzunlikda, ok va qora tukchalari tarqoq. Bayroqchasi sarik, uzunligi 20 mm, kanotchasi 17-18 mm uzunlikda, qayiqchasining uzunligi 18-20 mm. Dukkagi 2050 mm uzunlikda, bandining uzunligi 2-3 mm, tugri, tekis oq tukli tumshuqchasining uzunligi 8-10 mm.

Tarqalishi. Farg‘ona vodiysi:Farg‘ona viloyati (YAngiarik) da tarkalgan.

O‘sish sharoiti. SHurxok tuproqlarda o‘sadi.

Soni. 1928 yili bir martagina A. Yoffe tomonidan yig‘ilgan. Bu tur yo‘kolib ketgan bo‘lishi mumkin.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘paygan.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. O‘simlik tarqalgan joylarda xujalik ishlari yuritilishi tufayli kamayib ketgan.

Madaniylashtirilishi. Bu hakda ma’lumotlar yo‘k.

Muxofaza choralari. Muxofaza kilinmagan.



9- rasm. Qizg‘ish astragal - Astragal krasnovatыy - Astragalus rubellus Gontsch.

**10 (54). Angren tangao‘ti - Kopeechnik angrenskiy - Hedysarum angrenicum Korotkova**

Maqomi 1. G‘arbiy Tyan-SHanning CHotkol tizmasida uchraydigan kamyob endemik o‘simlik.

Qiskacha tavsifi. Bo‘yi 20 sm ga etadigan poyasiz, qishda er usti qismlari qurib qoladigan ko‘p yillik o‘t. Bargi murakkab, uzunligi 10-16 sm, bargchalari 3-4 juft, chuziqroq aylana shaklida, xar ikki tomoni tukli, ustki tomoni siyrak, pastki tomoni qalin tukli. Tupguli bargiga teng, ba’zan undan uzunroq, 16-18 sm. Kosachasi uzun tukli. Dukkagi tuksiz, bir-ikki, ba’zan uch bo‘g‘imli. Iyun oyida gullab, mevasi iyul-avgustda etiladi.

Tarqalishi. Toshkent va Namangan viloyatlari: CHotkol tizmasi (Oxangaron daryosi xavzasi) va Farg‘ona vodiysi (Oqsuv va Qorasuv daryolari havzalari) da tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Tog‘larning o‘rta qismidagi toshli shimoliy yonbag‘irlarda o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka xolda uchraydi.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. CHorva mollarining xaddan tashqari ko‘p boqilishi tufayli o‘simlikning urug‘ berishi pasayib ketgan.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘k.

Muxofaza choralari. Muxofaza kilinmaydi.



10- rasm. Angren tangao‘ti - Kopeechnik angrenskiy - Hedysarum angrenicum Korotkova

**11 (74). Vinkler gulsafsari - Iris Vinklera- Iris winkleri Regel**

Maqomi 2. G‘arbiy Tyan-SHanga xos juda kamyob, areali bo‘lingan tur.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 20 sm gacha etadigan ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyozining qobig‘i qora, qog‘ozsimon. Ildizoldi barglari 4 ta, chiziqli, eni 1-2 mm, o‘roqsimon egilgan. Guli yakka, gulqo‘rg‘oni barglarining uzunligi 4 sm atrofida, binafsha rangli. Aprel-may oylarida gullab, meva beradi.

Tarkalishi. Toshkent va Namangan viloyatlari: CHotqol va Qurama tizmalari - Angren daryosining yuqori oqimida tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Tog‘larning yuqori qismidagi maysazorlarda o‘sadi.

Soni. 15 ta joyda o‘sishi aniklangan. Umumiy soni xakida ma’lumotlar yo‘k.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Bu turning kamyobligi sababi, uning muayyan tuproq va iqlim sharoitiga moslashganligida bo‘lsa kerak.

Madaniylashtirilishi. Bu xaqda ma’lumotlar yo‘k.

Muxofaza choralari. Maxsus muxofaza choralari ishlab chiqilmagan. Areali va sonini aniqlash lozim.



11- rasm. Vinkler gulsafsari - Iris Vinklera- Iris winkleri Regel

**12 (80). Mayda mevali dorema -Dorema melkoplodnaya - Dorema microcarpum Korovin**

Maqomi 2. G‘arbiy Tyan-SHan va SHimoliy Pomir-Oloyda o‘suvchi o‘ta kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 1-2 m gacha etadigan ko‘p yillik o‘t. Barglari kulrang tusda bo‘lib, qirrali bo‘tun xamda yarmigacha kesilgan kichik bo‘lakchalarga to‘rt karra patsimon shaklda bo‘lingan. Bargining har ikki tomoni kalta-kalta tukchalar bilan qoplangan. Soyabonchalari qisqa shoxchalarda bittadan yoki ikkitadan bo‘lib, ketma- ket o‘rnashgan. Soyabonchalaridagi gullari 10 tadan. Mevasi mayda-mayda, uzunligi 6-7 mm. May oyida gullab, iyunda meva beradi.

Tarqalishi. Namangan va Farg‘ona viloyatlari: G‘arbiy Tyan-SHanda - CHotqol tizmasida (Quqonbiy va Tergachi qishloqlari oralig‘i); Oloy tizmasi (SHoximardon)da tarqalgan. Qirg‘izistonda xam uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tog‘ etaklaridagi soz tuproqli va shag‘alli yonbag‘irlarda o‘sadi. Soni. Kichik-kichik maydonlarda yakka-yakka holda uchraydi. Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. O‘simlikning kamayishiga erlarning qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun o‘zlashtirilishi va chorva mollarining boqilishi sabab bo‘lmokda. Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida 1961 yildan boshlab muvaffakiyatli ravishda o‘stirib kelinmokda. Muxofaza choralari. Muxofaza choralari ishlab chikilmagan.



12- rasm. Mayda mevali dorema -Dorema melkoplodnaya - Dorema microcarpum Korovin

**13 (89). Korjinskiy kovragi -Ferula Korjinskogo- Ferula korshinskyi Korovin**

Maqomi 2. SHimoliy Pomir-Oloyga xos kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Ko‘p yillik, poyasi tuksiz polikarp o‘simlik. Ildizida sharsimon yo‘g‘onlashgan joylari bor. Poyasi, odatda, bir nechta ingichka novdadan iborat, novdalarining rangi ko‘kimtir, uzunligi 2 m gacha etadi, yaproqlarsiz, yuqoriga qarab ikki yoki uch tarmoqqa ajralib ketgan. Barglari uch-turt karra uchga bo‘lingan. Uchidagi bo‘laklari nashtarsimon-chuzik yoki uzunchok, uzunligi 1,5-6 sm, kengligi 6-15 mm, chetlari bir tekis, bus-bo‘tun. Uchidagi soya- bonchalari 5-11 shu’lali bo‘lib, diametri 6-8 sm. Kosachasi kalta tishchalardan iborat. Bargchalari mayda, chuzikrok, sariq tusda. Mevalari ko‘kimtir, pastki tarafi kichrayib ketgan, chuzikroq shaklda, uzunligi 6-7 mm. Iyul oyida gullab, avgustda meva beradi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Oloy tizmasi (SHoximardon).O‘zbekistondan tashqarida: Qirg‘iziston.

o‘sish sharoiti. Tog‘ etaklarida toshloqlarda, gipsli tub jinslarda va boshqa tog‘ jinslarida o‘sadi. Soni. Aniklanmagan.Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Tog etaklaridagi erlarning tinimsiz o‘zlashtirilishi xamda chorva mollarining ko‘plab boqilishi tufayli kamayib bormokda. Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘k. Muxofaza choralari. Muxofaza kilinmaydi.



13- rasm. Korjinskiy kovragi -Ferula Korjinskogo- Ferula korshinskyi Korovin

**14 (90).O‘rinbosar kovrak- Ferula замещауищауа - Ferula vicaria Korovin**

Makomi 1. Farg‘ona vodiysining janubiy adirlarida o‘suvchi kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Ko‘p yillik monokarp o‘t o‘simlik. Ildizida sharsimon yo‘g‘onlashgan joylari bor. Poyasi, bir nechta bo‘lib, ko‘kimtir rangda, ingichka, 2 m gacha balandlikda, qalqonsimon shoxlangan. Barglari kalta, mustaxkam tukli, 3-4 karra patsimon qirqilgan, uchidagi bo‘laklari ingichka-uzunchok, 0,5-2 sm uzunlikda; poya barglari naysimon, yopirma barglargacha reduksilangan. Soyaboni 2-5 shu’lali; soyabonchalari 7-8 gulli. Kosachasi tishchasiz. Gultojibarglari deyarli yassi, keng ovalsimon, och yashil-qo‘ng‘ir. Mevasi teskari tuxumsimon, 4,5-6 mm uzunlikda. Iyun-iyul oylarida gullab, meva hosil qiladi.

Tarqalishi. Turkiston va Oloy tizmalari etaklarida tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Tog‘ etaklarida, toshloqlarda, gipsli tub jinslarda va boshqa tog‘ jinslarida o‘sadi.

Soni. Aniqlanmagan. Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Tog‘ etaklaridagi erlarning tinimsiz o‘zlashtirilishi hamda chorva mollarining ko‘plab boqilishi tufayli kamayib bormokda. Madaniylashtirilishi. Bu xaqda ma’lumotlar yo‘q.Muxofaza choralari. Muxofaza kilinmaydi.



14- rasm. O‘rinbosar kovrak- Ferula замещаущаya - Ferula vicaria Korovin

**15 (92). Fedchenko pildiroqmevasi -Omejnik fedchenkovskiy –**
**Oenanthe fedtschenkoana Koso-Pol.**

Maqomi 0. Farg‘ona vodiysiga xos nixoyatda kamyob (balki yo‘kolgan), endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 50 sm gacha etadigan (extimol monokarp) ko‘p yillik o‘t. Poyasi bitta, yumalok, chuqurroq chiziqli, kam shoxli. Barglari qisqa bandli, asosi keng - novsimon, ikki karra patsimon qirqilgan, bulaklari chuziq-qalami. Soyaboni 8-14 nurli, soyabonchalari ko‘p gulli, o‘rama bargchalari 5-10 ta, nashtarsimon. Mevalari tuxumsimon, uzunligi 2 mm. May-iyun oylarida gullab, mevasi iyun oyida etiladi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Qo‘qon shaxri atroflarida uchragan. Ushbu o‘simlik Moskva shaxrida (MW) saklanmokda deb kelingan gerbariy tipi asosida tavsirlangan. Biroq MW (Gubanov, 2002) va MNA da bunday o‘simlik yo‘k. Qo‘qon shaxri atroflarida olib borilgan bir necha izlanishlar natija bermagan. O‘rta Osiyoga mansub gerbariylarda ham o‘simlikning kayta terilgan nusxalari yo‘k. Extimol, melioratsiya va sug‘orish tizimlarining bir necha bor o‘zgarishi okibatida o‘simlikning o‘sish joylari o‘zlashtirilgan bo‘lishi mumkin. O‘simlik bir martagina terilgan, xolos. SHunda ham Qirg‘izistonning Qo‘qon shaxriga yakin joylaridan te-rilgan bo‘lishi yoki o‘simlikka oid ma’lumotlarda chalkashlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lishi extimoldan yiroq emas.

O‘sish sharoiti. Botqoqlangan erlarda va extimol, arik bo‘ylarida ham o‘sgan.

Soni. Qo‘qon shaxri atrofidan bir marta yig‘ilgan.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘paygan degan taxmin bor.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Bu tur hakida ma’lumotlar etarli emas.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘k.

Muxofaza choralari. Maxsus muxofaza choralari ishlab chikilmagan. O‘simlikning tabiatda borligini isbotlash zarur.



15- rasm. Fedchenko pildiroqmevasi -Omejnik fedchenkovskiy - Oenanthe fedtschenkoana Koso-Pol.

**16 (97). Sariq qirqgul -Ferganiya mnogotsvetkovaya - Fergania polyantha (Korovin) Pimenov**

Maqomi 1. Farg‘ona vodiysininig togoldi xududlariga xos kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Buyi 40 sm gacha etadigan ko‘p yillik, monokarp o‘simlik. Poyalari yakka, mayda chiziqli. YOpirma barglari (gullagan paytida) yassi va keng bandli. YAprog‘i uchburchak shaklida, uch karra qirqilgan, bo‘laklari o‘z navbatida patsimon qirqilgan. Soyaboni yon shoxlarda va poyaning uchida joylashgan, 7-10 shu’lali ko‘p gulli (gullar 36 tagacha), yumaloq. Gullari sariq, kosachasiz. May oyida gullab, mevasi iyunda etiladi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati:Oloyva Turkiston tizmalarining Farg‘ona vodiysiga yuzlangan tomonida tarqalgan. O‘zbekistondan tashqari Qirg‘iziston va Tojikistonda xam uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tog‘larning pastki qismida va tog‘ etaklarida, soz tuproqli tub jinslar (slanets, konglomerat) dan tashkil topgan yonbagirlarda, nurayotgan qoyalar va o‘rnashib qolgan surilmalarda o‘sadi.

Soni. Tabiatda yakka-yakka yoki tup-tup bo‘lib o‘sadi.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Ma’lumotlar yo‘q.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q.

Muxofaza choralari. Maxsus muxofaza choralari ishlab chikilmagan.



16- rasm. Sariq qirqgul -Ferganiya mnogotsvetkovaya - Fergania polyantha (Korovin) Pimenov

**17 (105). Korovin lomatokarpasi-Okaymlennoplodnik Korovina - Lomatocarpa korovinii Pimenov**

Maqomi 1. G‘arbiy Tyan-SHanning kamyob endemik o‘simligi.

Qisqacha tavsifi. Ko‘p yillik polikarp o‘t o‘simlik. Ko‘p sonli poyalari bargsiz, 5-15 (20) sm uzunlikda, tuksiz. Barglarining xammasi ildizoldi barglaridan iborat, ko‘p sonli, bandli, tuksiz, uzunligi 5-10 sm, eni 1-2 sm, yaproqlari 2 karra patsimon qirqilgan; uchidagi bo‘laklari ovalsimon yoki tuxumsimon, 3-4 mm uzunlikda, tishchalari bor. Soyabonlari 3-10 shu’lali, o‘rama barg va bargchalari 5-6 ta lansetsimon yaproqlardan tashkil topgan. Soyabonchasi 10 gulli. Kosachasi tishchalari tuxumsimon. Gultoji ok, tuxumsimon, 15 mm uzunlikda. Mevasi tuxumsimon, uzunligi 4 mm, eni 3-4 mm. Iyun-iyulda gullab, iyul-avgustda mevalaydi.

Tarqalishi. Toshkent va Namangan viloyatlari: Piskom, Ugom, CHotkol, Qurama tizmalari. Oʻzbekistondan tashqarida: Qirgʻiziston, Qozogʻiston.

Oʻsish sharoiti. Baland togʻlarning shagʻalli yonbagirliklarida oʻsadi (3000-3600 m).

Soni. Kichik toʻplar xolida oʻsadi. Boshkizilsoy yuqori qismi (Qoʻrgʻontosh va Qizilnura chuqqilarining atroflari) oʻsimlik dominantligidagi kichik jamoalar qayd qilingan.

Koʻpayishi. Urugʻidan koʻpayadi.

Oʻsimlik soni va arealining oʻzgarish sabablari. CHorva mollarining benixoya koʻp boqilishi.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yoʻq.

Muxofaza choralari. CHotqol biosfera kuriqxonasida va Ugom-CHotqol milliy tabiat bogʻida muxofaza kilinadi.



17- rasm. Korovin lomatokarpasi-Okaymlennoplodnik Korovina - Lomatocarpa korovinii Pimenov

**18 (108). Oloy xiyoli-Puzыrnitsa alayskaya -Physochlaina alaica Korotkova ex Kovalevsk.**

Maqomi 1. Oloy va Turkiston togʻlariga mansub juda kamyob endemik oʻsimlik.

Qisqacha tavsifi. Buyi 50 sm ga etadigan, koʻp yillik oʻt. Poyalari koʻp, tik, yoyiq siyrak, oddiy va bezchali tuklar bilan qoplangan. Barglari uzun bandli, keng

tuxumsimon, yaprog‘ining uzunligi 5-10 sm, eni 4-8 sm, ustki tomoni deyarli tuksiz, pastki tomoni tomirlari bo‘ylab siyrak tuklar bilan qoplangan. Gullari qisqa (0,5 sm), mevasining etilishiga qarab uzayib boradigan, bezchasimon tukli bandlarda o‘rnashgan. Tupguli yoyiq, yuqori qismi kallakchasimon. Kosachasi bezchasimon tukli, uzunligi 0,5 sm. Gultoji qo‘ng‘iroqsimon, uzunligi 10-15 mm, xira pushti rangli. Mevasi ko‘sakcha, uzunligi 10-12 mm. May oyida gullab, mevasi iyunda etiladi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Oloy tizmasida, SHoximardon va Sux daryolarining havzalarida uchraydi. Qirg‘iziston, Tojikiston (Turkiston tizmasi: Vorux, Xo‘jabaqirgan qishloqlari atroflari) da xam tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Dengiz satxidan 1800-2000 m balandlikda qoyalarning soyalari, bo‘tazorlarning taglari, archazorlar va ochiq erlarda o‘sadi.

Soni. Juda siyrak tarqalgan. Turli yoshdagi o‘simliklarningumumiy soni 8000 tupdan oshmaydi. Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Maxalliy axoli tomonidan dorivor o‘simlik sifatida ko‘plab ishlatilishi sababli kamayib ketgan. Madaniylashtirilishi. Tabiiy sharoitda ekib o‘stirilganda ijobiy natija bermagan. UzR FA Botanika bog‘ida 1973 yildan buyon o‘stirib kelinadi.

Muxofaza choralari. Maxsus muxofaza choralari ishlab chiqilmagan.



18- rasm. Oloy xiyoli-Puzыrnitsa alayskaya - Physochlaina alaica Korotkova ex Kovalevsk.

**19 (110). Toshbuzar parriyasi -Parriya kamnelomka - Parrya saxifraga Botsch. et Vved.**

Maqomi 2. G‘arbiy Tyan-SHanda areali bo‘lingan, endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 10 sm ga etadigan, deyarli poyasiz ko‘p yillik o‘t. Qisqa poyasi quruq barg qoldiqlari bilan qoplangan. Ildizi ko‘pboshchali. YOpirma barglari chuziq tuxumsimon, qattiq, chetlari tishli. Gulpoyalari bargsiz, oddiy, uzunligi 3-7 sm. Gullari binafsha rangli. Mevasi quzoq, yuqoriga qarab qayrilgan. Urugi yassi, yumalok, eni

2,5-5 mm, o‘rta qismidan uchiga va asosiga karab ingichkalasha boradi. Iyun oyida gullab, mevasi avgustda etiladi.

Tarqalishi. Toshkent, Namangan viloyatlari: CHotqol tizmasidagi Betogalik, Kengsoz va Kuytosh daralarida, Jirdon, Orashon dovonlaridao‘sadi. O‘sish sharoiti. Tog‘larda 2600-2900 m balandlikdagi shag‘alli yonbag‘irlarda o‘sadi.Soni. Tabiatda yakka-yakka xolda yoki kichik tuplar hosil qilib uchraydi. Bu tur tog‘larning chiqish qiyin bo‘lgan joylarida saqlanib qolgan. Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Urug‘ining unib chikish darajasi past bo‘lganligi tufayli kamayib bormokda.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q.

Muxofaza choralari. Maxsus muxofaza kilish tadbirlari ishlab chikilmagan.




19- rasm. Toshbuzar parriyasi -Parriya kamnelomka - Parrya saxifraga Botsch. et Vved.

**20 (111). Qurama parriyasi - Parriya kuraminskaya - Parrya kuramensis Botsch.**

Maqomi 1. G‘arbiy Tyan-SHanda uchraydigan kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Buyi 25 sm gacha etadigan poyasiz, kaudeksi ko‘p boshchali, ko‘p yillik o‘simlik. Barglari ildiz bug‘zida to‘p bo‘lib o‘rnashgan, oddiy, keng bandli, bezchasimon qalin tuklar bilan qoplangan, o‘tkir uchli, yaprokchalari yirik tishli. Gulpoyasi tik, uzunligi 15-18 sm, bargsiz, bezchasimon tukli. Gullari binafsha rangli. Kuzog‘i uzunchok, yassi, tik, tuksiz, bug‘im oraliqlari biroz ingichkalashgan. Urug‘i ellipssimon, bir qator o‘rnashgan. Iyunda gullab, mevasi iyulda etiladi.

Tarqalishi. Toshkent va Namangan viloyatlari: Qurama tizmasidagi Qamchik dovonida tarqalgan. O‘sish sharoiti. Dengiz satxidan 2200-2300 m balandlikda, siyrak archazorlar orasida, shag‘alli tik yonbagirlarda o‘sadi. Ochiq, shimoli-sharkiy yonbagirlar ularning o‘sishi uchun qulay joy xisoblanadi. Soni. YAkka-yakka xolda yoki 3-5 tupdan iborat xolda o‘sadi. Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Qamchik dovoni atrofida mollar boqiladigan erlarda o‘sganligi tufayli oyoqosti bo‘lib, kamayib ketgan. Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q. Muxofaza choralari. Tabiatda va madaniy sharoitda o‘stirib, turning biologik xususiyatlarini o‘rganish lozim.



20- rasm. Qurama parriyasi - Parriya kuraminskaya - Parrya kuramensis Botsch.

**21 (124). Albert qisroni -Vikstremiya Alberta (restella Alberta) - Wikstroemia alberti (Regel) Domke (= Restella albertii (Regel) Pobed.)**

Maqomi 3. Pomir-Oloy va G‘arbiy Tyan-SHan tog‘larida uchraydigan kamyob tur.

Qisqacha tavsifi. Buyi 1,5 m ga etadigan buta. Eskirgan shoxlari qo‘ng‘ir, kulrang, yosh novdalari yotiq tukli. Barglari nashtarsimon, 1,5-3 sm uzunlikda, eni esa 0,5-1,5 sm, asosi ponasimon, uchi tumtoq, xar ikki tomoni tukli, pastdagilari bandsiz. Gullari 5-13 tadan soyabonsimon boshcha tupgul hosil kiladi. Gulbandi 1,5 sm yashil, yotik tukli. Tojbarglari sarik. YOngoq mevali, qurigan gulkurg‘on bo‘laklari bilan o‘ralgan. Iyun-iyul oyida gullab, mevasi iyul-avgustda etiladi.

Tarqalishi. Toshkent, Namangan va Surxondaryo viloyatlari: G‘arbiy Tyan-SHan (CHotqol, Piskom, Qurama tizmalari) va Pomir-Oloyda (Xisor tizmasining janubiy yonbag‘ri, Boysun tog‘lari)da tarqalgan. Tojikiston va Qirg‘izistonda xam uchraydi.

O‘sish sharoiti. Archazorlar orasida, sernam va yumshoq tuproqlarda o‘sadi. Soni. Kam uchraydi, kichik tuplar hosil kiladi.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Ma’lumotlar yo‘q.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q.

Muxofaza choralari. CHotkol davlat biosfera qo‘riqxonasi va Ugom-CHotkol milliy tabiat bog‘ida muxofaza kilinadi.



21- rasm. Albert qisroni -Vikstremiya Alberta (restella Alberta) - Wikstroemia alberti (Regel) Domke (= Restella albertii (Regel) Pobed.)

**22 (128). Xolmon isirg‘aguli -Ryabchik Eduarda - Fritillaria eduardii Regel**

Maqomi 1. Uzbekistonda kamayib borayotgan va areali ajralgan endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Poyasi bargli, 40-80, ba’zan 150 sm ga etadigan piyozli, ko‘p yillik o‘t. Barglari yaltiroq, yashil, pastki barglari keng cho‘ziq, ba’zan poyada xalqa hosil kilib joylashadi. Poyaning eng yuqori qismidagilari nashtarsimon, xalka shaklida o‘rnashgan. Gullari qo‘ng‘iroqsimon, pastga karab osilib turadi, qizg‘ish, kirmizi-ko‘ngir rangli, 2-8 tadan bo‘lib, soyabonsimon tupgul hosil kiladi. Mevasi yukoriga qarab tik turuvchi, qisqa bandli, eni 4-5 sm, ensiz qanotchali kutichaga o‘xshaydi. Aprelda gullab, mevasi may oyida etiladi. Ajoyib, xushmanzara o‘simlik.

Tarqalishi. Surxondaryo, Farg‘ona viloyatlari: Bobotog‘, Xisor, Oloy (Sux daryosining xavzasi) tizmalarida tarqalgan. Tojikistonda, Afgonistonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Dengiz satxidan 2100 m balandlikda daraxt va butalar orasida, ba’zan sernam toshli hamda oxaktoshli surilmalarda o‘sadi.

Soni. O‘zbekistonda juda kam uchraydi.

Ko‘payishi. Urug‘idan va vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Gullari g‘oyat chiroyli, gullagan paytida maxalliy xalq tomonidan terib olinadi, piyozlari esa qazib olinib, iste’mol kilinadi. SHu sababli, keskin kamayib ketgan.

Madaniylashtirilishi. Madaniylashtirilgan. Ko‘plab botanika bog‘larida, jumladan, O‘zR FA Botanika bog‘ida 1955 yildan buyon ekib o‘stiriladi.

Muxofaza choralari. U keng tarkalgan joylarda buyurtmaxonalar tashkil etish zarur. Manzarali bogdorchilik xo‘jaliklarida ko‘plab ekib o‘stirilishi lozim.



22- rasm. Xolmon isirgaguli -Ryabchik Eduarda - Fritillaria eduardii Regel

**23 (129). Vvedenskiy lolasi -Tyulpan Vvedenskogo - Tulipa vvedenskyi Botschantz.**

Maqomi 3. Janubi-g‘arbiy Tyan-SHanda o‘suvchi kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 20-35 sm ga etadigan ko‘p yillik, piyozli o‘t. Piyozi tuxumsimon, diametri 2-3 sm, to‘q-qo‘ng‘ir rangli, kobig‘i kog‘ozsimon. Barglari 3-4 ta, egri-bugri. Gullari bittadan, qizil rangli. Gulining tubi sariq, changchi iplari sariq yoki qo‘ng‘ir, changdonlari sarik yoki qoramtir- binafsha rangli. Aprel-may oylarida gullab, iyun-iyulda mevasi etiladi.

Tarqalishi. Qurama va CHotqol tizmalarida, asosan, Oxangaron daryo vodiysida o‘sadi (Toshkent, Namangan viloyatlari).

O‘sish sharoiti. Dengiz satxidan 1600-2000 m balandlikda tub jinslarda, shagalli yonbagirlarda o‘sadi.

Soni. Tabiatda kichik guruxlar hosil qilgan xolda tarqalgan.

Ko‘payishi. Urug‘idan va piyozi orkali ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Gul va piyozlari ko‘plab yig‘ib olinishi xamda chorva mollarining boqilishi tufayli kamayib bormokda.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida 1956 yildan buyon ekib kelinadi.

Muxofaza choralari. Ayrim populyasiyalari CHotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi va Ugom- CHotqol milliy tabiat bog‘ida muxofaza kilinadi. Tabiatda o‘sib turgan tuplarini nazorat ostiga olish lozim.



23- rasm. Vvedenskiy lolasi -Tyulpan Vvedenskogo - Tulipa vvedenskyi Botschantz.

**24 (131). Farg‘ona lolasi, Javg‘aza lola -Tyulpan ferganskiy -Tulipa ferganica Vved.**

Maqomi 2. Farg‘ona vodiysining kamyob endemik o‘simligi.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 15-40 sm ga etadigan ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyozi tuxumsimon, qobig‘i qoramtir-qo‘ng‘ir, kattik-charmsimon, ichki tomonining yuqori qismi va asosi yotiq tukli. Barglari tukli, yuqori qismidagilari egri-bugri. Guli yakka, sariq, tashqi tomoni ko‘kimtir-pushti rangli, gul tubi sap-sariq. CHangchi iplari qizg‘ish- sariq, changdoni qizg‘ish rangli. Aprel-may oylarida gullab, mevasi iyun-iyulda etiladi.

Tarqalishi. CHotqol, Farg‘ona, Oloy tizmalarining pastki qismida tarqalgan (Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlari). Qirgizistonda xam uchraydi.

O‘sish sharoiti. Adir va tog‘lardagi toshli va mayda zarra tuproqli yonbag‘irlarda o‘sadi.

Soni. Tabiatda yakka xolda tarqalgan.

Ko‘payishi. Urug‘idan va vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Gul va piyozlari yig‘ib olinishi va chorva mollarining boqilishi tufayli kamayib bormokda. Ilgari Farg‘ona shaxri atroflarida o‘sganligi ma’lum.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida 1957 yildan buyon ekib o‘stiriladi.

Muxofaza choralari. Muxofaza kilinmaydi. Tabiatda o‘sib turgan tuplarini kat’iy nazorat ostiga olish lozim.



24- rasm. Farg‘ona lolasi, Javg‘aza lola -Tyulpan ferganskiy – Tulipa ferganica Vved.

**25 (137). Sarg‘ish lola -Tyulpan volosistotыchinochnыy - Tulipa dasystemon (Regel) Regel**

Maqomi 3. G‘arbiy Tyan-SHan va Pomir-Oloydagi areali ajralgan kamyob tur.

Qisqacha tavsifi. Buyi 10-20 sm ga etadigan ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyozi tuxumsimon, diametri 1,5 sm gacha. Qobig‘i kog‘ozsimon, kora-qo‘ng‘ir tusli yoki qo‘ng‘ir, ichki tomonining yuqori qismi yotik tukli. Bargi 2-3 ta. Guli yakka, och sarik, ba’zan ok, tubi sarik. CHangchi ipi va changdoni sariq. May-iyun oy-larida gullab, mevasi iyul-avgustda etiladi.

Tarqalishi. Piskom, Ugom, CHimyon, CHotqol, Kurama, Oloy, Turkiston, Molguzar, Xisor tizmalarida tarkalgan (Toshkent, Farg‘ona, Jizzax, Surxondaryo viloyatlari). Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Dengiz satxidan 2500-3000 m balandlikdagi toshli va shag‘alli tog‘ yonbag‘irlarda o‘sadi.

Soni. Kichik to‘plar hosil kilib yoki yakka-yakka xolda tarqalgan.

Ko‘payishi. Urug‘idan va piyozidan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Urug‘ining yomon unishi va chorva mollarining boqilishi arealining qisqarib ketishiga sabab bo‘lgan.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida 1959 yildan buyon ekib o‘stiriladi.

Muxofaza choralari. CHotqol va Zomin qo‘riqxonalarida, Ugom-CHotkol va Zomin milliy tabiat bog‘larida muxofaza kilinadi. Bu o‘simlik o‘sadigan joyda mol boqilishini rejalashtirish va uni nazorat ostiga olish kerak.



25- rasm. Sargish lola -Tyulpan volosistotыchinochnыy –

Tulipa dasystemon (Regel) Regel

**26 (139). Kaufman lolasi, Targ‘il lola - Tyulpan Kaufmana - Tulipa kaufmanniana Regel**

Maqomi 3. G‘arbiy Tyan-SHandagi kamayib bora- yotgan endemik O‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Buyi 10-50 sm orasidagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyozi tuxumsimon, chuzik yoki sholgomsimon, diametri 1,5-6 sm oraligida. Kobigi tuk kungir yoki tillarang kungir, nafis, kogozsimon yupka. Barglari 3-5 ta. Guli yakka, ok, sarik, och sarik, och kizil. Gulining tubi sarik. CHangchi iplari va changdonlari sarik. Mart-aprel oylarida gullab, mevasi may-iyunda etiladi.

Tarqalishi. Toshkent va Namangan viloyatlari: Ugom, Piskom, Korjontov, CHotkol, Kurama tizmalarida tarqalgan. O‘zbekistondan tashqarida: Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston.



26- rasm. O‘sish sharoiti. Tog‘ etaklaridan to yuqori (yaylovning pastki) qismigacha bo‘lgan toshli erlarda o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka yoki kichik tuplar xosil kilib o‘sadi.

Ko‘payishi. Urugidan va vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabab- lari. Gullarining ko‘p mikdorda terib olinishi xamda usib turgan erlarining uzlashtirilishi tu- fayli kamayib bormokda.

Madaniylashtirilishi. UzR FA Botanika bogida 1951 yildan buyon ekib ustiriladi.

Muxofaza choralari. CHotqol biosfera ku- rikxonasida va Ugom-CHotqol milliy tabiat bogida muxofaza kilinadi. Tabiatdagi tuplari- ning xolatini nazorat kilish, gullarini terishni takiklash, ular orasidan manzarali shakllarini aj- ratib olish va ekib ustirish zarur.

**27 (142). SHubhali lola, CHipor lola -Tyulpan somnitelnыy -Tulipa dubia Vved.**

Maqomi 3. G‘arbiy Tyan-SHandagi kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Buyi 7-25 sm oraligidagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyozi chuziq-tuxumsimon, qobigi tuk jigarrang, ichi yotiq tukli. Barglari uchta, ko‘kimtir, chetlari egri-bugri. Gullari yopirma barglar orasida joylashgan.

Gulbandi sertuk, ko‘kimtir g‘uborli. Gullari yakka, sariq, tashqi tomoni ko‘kimtir-pushti yo‘l-yo‘l, gul tubi to‘q sariq. CHangchi iplari tuk sariq, changdonlari sariq. May- iyun oyida gullab, mevasi iyul-avgustda etiladi.

Tarkalishi. Toshkent va Namangan viloyatlari: Ugom, Piskom, Korjontov, CHotqol, Qurama tizmalarida tarqalgan. Qirg‘iziston va Qozog‘istonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tog‘ning o‘rta va yuqori qismidagi mayin zarra tuproqli, shag‘alli yonbagirlarda o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka holda tarqalgan.

Ko‘payishi. Urug‘idan va piyozidan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Gullari va piyozlari yig‘ib olinishi sababli qisqarib bormokda.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida 1951 yildan buyon ekib o‘stiriladi.

Muxofaza choralari. CHotqol biosfera qo‘riqxonasida va Ugom-CHotkol milliy tabiat bog‘ida muxofaza kilinadi. Biologik xususiyatlarini o‘rganish va madaniylashtirilishi lozim.




27- rasm. SHubhali lola, CHipor lola -Tyulpan somnitelnыy -Tulipa dubia Vved.

**28 (145).  Qizil lola (Greyg lolasi) -Tyulpan Greyga - Tulipa greigi Regel**

Maqomi 3. G‘arbiy Tyan-SHandagi kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 10-45 sm oraligidagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyozi tuxumsimon yoki yumaloq, qobig‘i ba’zan qalin charmsimon ba’zan yupqa qog‘ozsimon. Barglari 3-4 tagacha egri-bugri, ustki qismida binafsha rang dog‘lari bor. Gullari yakka, tuk sariq, ba’zan to‘q qizil, sariq, qizg‘ish dog‘li. Gulining tubi sariq tuxumsimon qora dog‘li. CHangchi iplari qora yoki sariq, changdonlari sariq, binafsha- rang, kulrang. Aprel-may oylarida gullab, mevasi iyun-iyulda etiladi.

Tarqalishi. Toshkent va Namangan viloyatlari: G‘arbiy Tyan-SHanning barcha tizmalarida tarqalgan. Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda xam uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tog‘ning pastki qismidagi shag‘alli va soz tuprokli yonbag‘irlarda o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka xolda, ba’zan 5-10 tupdan iborat tuplar xosil kilib tarkalgan. Toshkent viloyati xududida 100 000 tupga yaqin o‘sadi.

Ko‘payishi. Urug‘idan yoki kisman vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Guli va piyozlarining ko‘p mikdorda yigib olinishi xamda chorva mollari boqilishi o‘simlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmokda.

Madaniylashtirilishi. Ko‘pgina botanika boglarida muvaffakiyatli o‘stiriladi. SHu jumladan, O‘zR FA Botanika bogida 1956 yildan buyon ekib kelinadi.

Muxofaza choralari. CHotqol davlat biosfera qo‘riqxonasida va Ugom-CHotqol milliy tabiat bog‘ida muxofaza qilinadi. Uning o‘sib turgan tuplari nazorat ostiga olinishi lozim.



28- rasm. Qizil lola (Greyg lolasi) -Tyulpan Greyga - Tulipa greigi Regel

**29 (146). SHaripov lolasi, Gulbarra -Tyulpan SHaripova - Tulipa scharipovii Tojibaev**

Maqomi 2. Farg‘ona vodiysining shimoliy adirlarida tarqalgan endemik tur.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 15-20 sm ga etadigan, piyozi ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Piyozi tuxumsimon, qobigi qattiq, jigarrang tusli, ichki tomonidagi tuklari zich joylashgan, qobiqning tubi va yuqorisida jamlangan. YUqoridagi tuklari qobikdan tashqariga chiqib turadi. Barglari 3 ta, lansetsimon, bir-biriga juda yaqin joylashgan, 7-10 sm. Guli sariq, tubida sariq rang quyuklashadi. Gul bargchalarining uchi kesilgan yoki chuqurchali. CHang iplari va changdonlari sariq. Mart-aprel oylarida gullab, mevasi mayda pishadi.

Tarqalishi. Namangan viloyati: CHotqol va Qurama tizmalarining tog‘ oldi tekisliklari va adirlarida tarqalgan (To‘raqo‘rgondan Rezaksoy qishlog‘igacha).

O‘sish sharoiti. Quyi adirlardagi biroz sho‘rlashgan mayin tuproqlarda, yuqori adirlardagi toshli-shag‘alli yonbag‘irliklarda o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka va kichik tuplar hosil qilgan holda uchraydi. Populyasiyalarda 100 x 100 m maydonda 50-80 ta tupi uchraydi.

Ko‘payishi. Urug‘idan va piyozidan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Guli va piyozlarining ko‘p mikdorda yig‘ib olinishi hamda chorva mollarining boqilishi.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida 2009 yildan buyon ekib o‘stiriladi.

Muxofaza choralari. Uning o‘sib turgan tuplari nazorat ostiga olinishi lozim.



29- rasm. SHaripov lolasi, Gulbarra -Tyulpan SHaripova - Tulipa scharipovii Tojibaev

**30 (147). Oralik lola -Tyulpan promejutochnыy - Tulipa intermedia Tojibaev etj. de Groot**

Maqomi 2. Farg‘ona vodiysining shimoliy adirlarida tarkalgan kamyob o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Piyozi tuxumsimon, diametri 1,5 - 3,0 sm, qobig‘i ensiz, charmsimon, to‘k jigarrang tusli, birmuncha uzun, ba’zan xatto tuproq yuzasiga chiqib qolishi mumkin. Ichki tomonidagi tuklari zich joylashgan va asosan qobig‘ining pastki qismi xamda yuqorisida jamlangan. Bargi 3 ta, ular bir-biriga juda yakin o‘rnashgan, 5-7 sm uzunlikda, nashtarsimon qirrali, chetlari buralgan, tulqinsimon. YAkkagulli, guli sariq, tuk sariq yoki qizil (var. korolkowioides), gul tubi jigarrang yoki to‘q sariq rang. Gul bargchalarining uchi o‘tkir yoki biroz kemtiklashgan. CHangchi iplari 1,0 - 1,3 sm, sariq, ba’zan pastki qismi qora, yuqorisi alvon rang (var. korolkowioides), chetlari bir-biriga parallel, o‘rta qismi biroz kengaygan. CHangdonlari sariq. Tugunchasi butilkasimon, rangi och-sariq. Mart oyining oxiri - aprel oyining boshlarida gullab, urug‘i aprel oxiri - may oylarida etiladi.

Tarqalishi. Namangan viloyati (CHust va Pop tumanlari): Qurama tizmasida tarqalgan.

O‘sishi. Adirlarning quyi va o‘rta qismidagi toshli-shag‘alli yonbagirliklarda o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka xolda tarqalgan.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. CHorva mollarining betartib boqilishi tufayli kamayib bormokda.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA O‘simlik va xayvonot olami genofondi institutining Toshkent botanika bog‘ida ekib o‘stirilmokda.

Muxofaza choralari. CHorva mollarini tizimli ravishda o‘tlatish xamda o‘sish maydonlarida doimiy kuzatuv tadqiqotlarini amalga oshirish lozim.



30- rasm. Oraliq lola -Tyulpan promejutochnыy - Tulipa intermedia Tojibaev etj. de Groot

**31 (170). Nozik qandim -Kandыm izyaщnыy - Calligonum elegans Drobow**

Maqomi 2. Farg‘ona vodiysidagi tub ola jinslarda tarqalgan kamyob tur.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 50-100 sm, tirsaksimon shoxlangan buta. Gulkurg‘oni mevalayotganda pastga qarab egilgan. Mevasi ovalsimon yoki sharsimon, uzunligi 10-15 mm, sariq yoki qizil. Qanotchalari yupqa, yassi, chetlari notekis mayda

tishchali, qirralari mayda tishli. YOng‘oqchasi 10 mm uzunlikda, 90 daraja buralgan. Aprelda gullab, may oyida mevalaydi.

Tarqalishi. Farg‘ona vodiysi: Farg‘ona viloyati Gumxona, Oqcho‘p, Oqbel, Supatog‘ va Qorakalpoq chulida tarqalgan. Tojikiston (Vaxsh vodiysi)da ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tub ola jinsli tuproqlarda, tub jinslari er yuziga yaqin joylashgan qumlarda o‘sadi. Soni. Aniqlanmagan. Kichik maydonlarda siyrak holda uchraydi. Ko‘payishi. Ma’lumotlar yo‘q. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. CHorva mollarining mo‘ttasil boqilishi o‘simlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q. Muxofaza choralari. Maxsus muxofaza choralari ishlab chiqilmagan.



31- rasm. Nozik qandim -Кандым izyaщnыy - Calligonum elegans Drobow

**32 (171). Oxaktosh qandimi -Кандым izvestkovыy - Calligonum calcareum Pavlov**

Maqomi 1. Turkiston tizmasida kichik maydonchalarda o‘sadigan kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 30-40 sm balandlikdagi tirsaksimon egri-bugri shoxlangan buta. Gullari oq. Gulqo‘rg‘oni mevalayotganida pastga egiladi. Mevasi

chuziq-oval shaklida, uzunligi 10-15 mm, eni 7-10 mm, sariq; yoki qizil. Qanotchalari keng-nashtarsimon, asosi o‘yilgan, yuqori qismi o‘tkir uchli, qirrasi notekis o‘tkir tishchali, ustki qismi (sirti) oddiy yoki ayrisimon tikanli. YOngoqchasi to‘g‘ri, uzunligi 7-10 mm. Aprelda gullab, may oyida mevalaydi. Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Sux va Isfara daryolari xavzalarida tarqalgan. Tojikistonda xam uchraydi. O‘sish sharoiti. Ochik oxaktoshli yonbagirlarda va daryo qirgoqlaridagi gipsli qum-shag‘alli joylarda o‘sadi. Soni- aniqlanmagan. Ko‘payishi. Ayrim ob-xavo qulay kelgan yillari urug‘idan chiqqan nixollarini kuzatish mumkin. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. CHorva mollarining boqilishi o‘simlikning ko‘payishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q. Muxofaza choralari. Muxofaza qilinmaydi.



32- rasm. Oxaktosh qandimi -Kandim izvestkoviy - Calligonum calcareum Pavlov

**33 (182). Kachimsimon etmak (Bex) -Alloxruza kachimovidnaya - Allochrusa gypsophiloides (Regel) Schischk.**

Maqomi 3. Markaziy Osiyo tog‘laridagi areali keskin qisqarib borayotgan endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 30-60 sm orasidagi ko‘p yillik o‘t. Poyasi ingichka, ko‘p. Barglari 10-25 mm uzunlikda, yassi, qalami, tikansiz. Gullari pushti rang,

poyaning tepasida yoyik ruvaksimon to‘pgul hosil kiladi. Mevasi - ko‘saksimon. May-avgust oylarida gullab, mevasi avgust-sentyabrda etiladi.

Tarqalishi. Toshkent, Namangan, Jizzax, Kashkadaryo va Surxondaryo viloyatlari: Qurama, CHotqol, Molguzar, Nurota, Xisor, Kuditang tizmalarida tarqalgan. Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmanistonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Dengiz satdidan 400-1400 m balandlikda toshli va shag‘alli yonbag‘irlarda va ba’zan tashlandiq erlarda o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka holda yoki kichik tuplar hosil kilib o‘sadi.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Madalliy adoli tomonidan sanoat xomashyosi va dorivor o‘simlik sifatida ko‘plab yig‘ib olinadi. Etmakdan tuqimachilik, mo‘ynachilik, qandolatchilik sanoatida, tabobatda va kundalik dayotda keng foydalaniladi. SHuning uchun u kamayib bormoqda.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida o‘stiriladi.

Muxofaza choralari. Surxon, Kitob, CHotqol qo‘riqxonalari va Ugom-CHotqol milliy tabiat bog‘ida muxofaza kilinadi. Sanoat ehtiyoji uchun ekiladigan maydonlarni kengaytirish kerak. Tabiatda etmakzorlar tiklanganidan so‘ng ham uni mas’ul idoralar ijozati bilan yig‘ish lozim.



33- rasm. Kachimsimon etmak (Bex) -Alloxruza kachimovidnaya - Allochrusa gypsophiloides (Regel) Schischk.

**34 (189). Bigizsimon oqtikan-Kolyuchelistnik belovatыy - Acanthophyllum albidum Schischk.**

Maqomi 3. Farg‘ona vodiysi adirlarida saqlanib qolgan juda kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Balandligi 30 sm ga etadigan, yog‘ochlanuvchi yarim buta. Barglari bigizsimon, poyada qarama-qarshi joylashgan, uzunligi 2-4 sm, eni 1,5 sm. Gullari poyalarining uchida, diametri 5 sm ga etadigan qalqonsimon to‘pgul hosil qilib joylashgan. Kosachasi naysimon, uzunligi 6-7 mm. Toj- barglari oq, asosi sal pushti rang, eni 1,5 mm.

Tarqalishi. Farg‘ona, Namangan viloyatlari: Farg‘ona vodiysida dengiz satdidan 500-800 m balandlikda tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Toshli va mayda zarra jins tuproqli adirlarda o‘sadi.

Soni. Pop adirlari (CHodaksoy davzasi) da yakka-yakka holda tarqalgan,

10 $m^2$ da o‘rtacha 3-4 tupi o‘sadi.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Oqtikan o‘sib turgan erlarning qishloq xo‘jalik ekinlari (g‘alla va boshqalar) uchun o‘zlashtirilishi arealining qisqarib ketishiga sabab bo‘ldi.

Madaniylashtirilishi. Bu tur O‘zR FA Botanika bog‘ida madaniy sharoitda ekib o‘stirilgan. Urug‘ining unib chikishi 1 foizdan kam ekanligi aniqlangan.

Muxofaza choralari. Mavjud tuplari qat’iy nazorat ostiga olinishi kerak.



34- rasm. Bigizsimon oqtikan-Kolyuchelistnik belovatыy - Acanthophyllum albidum Schischk.

**35 (194). Aflotun piyozi -Luk aflatunskiy - Allium aflatunense V. Fedtsch.**

Maqomi 1. G‘arbiy Tyan-SHanga xos areali ajralgan endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 80-200sm oralig‘idagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Piyozi yirik, diametri 6 sm gacha etadi. Qobig‘i qora-kulrang. Poyasining tubini eni 10 sm keladigan tasmasimon barglari o‘rab olgan. To‘pguli sharsimon, gullari ko‘p va tig‘iz, yulduzsimon gulqo‘rg‘on bo‘lakchalari och binafsha rangli. May-iyun oylarida gullab, urug‘i iyun-iyulda etiladi.

Tarqalishi. Toshkent viloyati: Piskom, Ugom, CHotqol tizmalarida tarqalgan. Qirg‘izistonda, CHotqol va Farg‘ona tizmalarida uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tog‘larning o‘rta va yuqori qismlarida o‘tlar bilan qoplangan yonbag‘irlarda va daryo bo‘ylaridagi sizot suvlari uncha ko‘p bo‘lmagan joylarda o‘sadi.

Soni. Bir-biridan ajralgan xolda kichik-kichik to‘plar tashkil kiladi.

Ko‘payishi. Asosan urug‘idan va vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Piyozining maxalliy axoli tomonidan ozuqa sifatida ishlatish xamda dorivor va manzarali o‘simlik sifatida tomorqa erlariga ekish uchun qazib olinishi, kuz va qishda turli xayvonlar tomonidan piyozlarining eyilishi kamayib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida o‘stirilmoqda.

Muxofaza choralari. CHotqol biosfera qo‘riqxonasida muxofaza kilinadi.



35- rasm. Aflotun piyozi -Luk aflatunskiy - Allium aflatunense V. Fedtsch.

**36 (196). Oloy piyozi -Luk alayskiy - Allium alaicum Vved.**

Maqomi 1. Oloy tizmasidagi goyat kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bosh piyozi 1-2 sm kenglikda, qoramtir, qog‘ozsimon qobiqli (po‘stli). Poyasi 30-60 sm uzunlikda, pastki qismi pastga egilgan, tukli. Barglari 2-3 ta, qalami- nashtarsimon, eni 10-15 mm, pastga qarab egilgan tuklar bilan kalin qoplangan, poyasidan qisqa. Soyaboni ko‘p gulli, deyarli sharsimon, diametri 30-40 mm. Gul bandlari teng, gulyonbargchalari yo‘q. YUlduzsimon gulqo‘rg‘on bo‘laklari oqish, kirsimon qizil rangli, uzunligi 6 mm, kalami, to‘mtoqroq, keyinroq pastga qarab egiladi. CHangchi ipi 6 mm uzunlikda, bigizsimon. Ko‘sagi (qutichasi) sharsimon, diametri 4 mm. Iyunda gullab, mevasi iyulda etiladi.

Tarqalishi. YAqinda Andijon viloyati (Imomota qishlog‘idan 10 km janub) dan topilgan. O‘zbekistondan tashqari Qirg‘iziston (O‘sh viloyati) da o‘sadi. O‘sish sharoiti. Qoldiq tog‘larning mayin tuproqli yonbag‘irlarida o‘sadi. Soni. 50 tup o‘simlikdan iborat 2 ta populyasiyasi topilgan.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Mol boqilishi sababli qisqarib ketgan. Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida o‘stirilgan. Muxofaza choralari. Muxofaza kilinmaydi.



36- rasm. Oloy piyozi -Luk alayskiy - Allium alaicum Vved.

**37 (198). Bakxauz piyozi -Luk Bakxauza - Allium bakhousianum Regel (= A. gulczense O. Fedtsch.)**

Maqomi 1. Oloy va Farg‘ona tizmasida kichik maydonda saklanib kolgan goyat kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bosh piyozining eni 3-5 sm, qoramtir, kogozsimon pustli (qobiqli). Poyasining bo‘yi 90-150 sm, sillik. Barglari 5-6 ta, kayishsimon, eni 4-8 sm, sillik. Soyaboni ko‘pgulli, deyarli sharsimon, diametri 5-10 sm. Gulbandi deyarli teng, uzunligi 3-5 sm, gulyon- bargchalari yo‘q. Gulqo‘rg‘on bo‘laklari yulduzsimon, oq, yashil tomirli, uzunligi 10 mm, qalami, tumtoqroq, keyinchalik pastga qarab egiladi. CHangchi iplari 7-8 mm uzunlikda, bigizsimon, ichkaridagilarining tubi ikki tishchali. Kusagi sharsimon, diametri 5-6 mm. Tarqalishi. Farg‘ona viloyati (SHoximardon daryosi voxasi) da tarqalgan (Farg‘ona viloyati). O‘zbekistondan tashqarida Xitoy va Qirg‘izistonda uchraydi. O‘sish sharoiti. Yirik tosh bo‘laklaridan iborat surilmalarda o‘sadi. Soni. 1998 yili 30 tupi borligi aniqlangan. Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Kamayib ketishiga urug‘lari unuvchanligining pastligi sabab bo‘lgan. Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida ekib o‘stirilgan. Muxofaza choralari. Muxofaza kilinmaydi.



37- rasm. Bakxauz piyozi -Luk Bakxauza - Allium bakhousianum Regel (= A. gulczense O. Fedtsch.)

**38 (206). YAshil gulli piyoz -Luk zelenovatыy - Allium viridiflorum Pobed.**

Maqomi 1. CHotqol tizmasidagi goyat kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Piyozboshi 1-2 sm kenglikda, kulrang, yupqa qobiqli (po‘stli). Piyozchalari qisqargan, kam sonli. Poyasining uzunligi 20-23 sm, eni 1,0 mm. Barglari bo‘lingan, 4 ta, ipsimon, zich joylashgan, kalami novsimon bo‘lakli, qisqa poyali. Soyaboni siyrak, gullash davridan sung 7-9 sm kenglikda. Gulbandlari teng, ipsimon, uzunligi 4-5 sm, tubida gulyonbargchalari yo‘q, quyidan yuqoriga bukilgan. YUlduzsimon gulqo‘rg‘on bo‘laklarining uzunligi 4-5 mm, yashil, teng, tumtoq, gullagandan keyin buralib qolmaydi. CHangchi iplari gulqo‘rg‘ondan kalta, asosidan boshlab bir-biri bilan qo‘shilgan, tishsiz. Ko‘sakcha gulqo‘rg‘ondan ozgina uzunroq, deyarli sharsimon, 3 urug‘li. Urug‘i yumaloq, qora, chuqurchali.

Tarqalishi. 2013 yilda Namangan viloyatidan (Poromon kishlogidan 2 km shimol tomonda) topilgan. O‘zbekistondan tashqari, Qirg‘izistonda o‘sadi.

O‘sish sharoiti. Past tog‘oldi xududlardagi yumshoq yonbag‘irlarda o‘sadi.

Soni. 20 tup o‘simlikdan iborat 1 ta populyasiyasi topilgan. Ko‘payishi. Urug‘idan va vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. CHorva boqilishi sababli qisqarib ketgan. Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘ida ekib o‘stirilmoqda. Muxofaza choralari. Muxofaza kilinmaydi.



38- rasm. YAshil gulli piyoz -Luk zelenovatыy - Allium viridiflorum Pobed.

**39 (210). G‘alati uchqat - Jimolost strannaya - Lonicera paradoxa Pojark.**

Maqomi 1. Pomir-Oloydagi juda kamyob, areali ajralgan, relikt endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Tarvaqalaygan shox-shabbali buta. Barglari ellipssimon yoki teskari-tuxumsimon, bo‘lakli, uzunligi 20 mm, chetlari qisqa kipriksimon, har ikki tomoni qisqa tukli. Gullari barg qo‘ltig‘ida joylashgan. Mevasi yumshoq, qizil rangli, mayda. Urug‘lari 4-5 ta, oqish. Iyul- avgustda gullab, mevasi sentyabrda etiladi.

Tarqalishi. Jizzax va Farg‘ona viloyatlari: Oloy tizmasi (SHodimardon sishlogi atrofi) va Turkiston tizmasida tarqalgan. Tojikiston va Qirg‘izistonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tog‘larning o‘rta va yusori sismlarida toshli-shagalli yonbag‘irlarda va siyrak archazorlarda o‘sadi.

Soni. Tabiatda juda kam uchraydi.

Ko‘payishi. Urug‘i va ildiz bachkilaridan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. O‘tin sifatida ishlatiladi. CHorva mollaridan ham zarar ko‘radi.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q.

Muxofaza choralari. Buyurtmaxonalar tashkil qilish va O‘zR FA Botanika bog‘ida biologik xususiyatlarini o‘rganish lozim.



39- rasm. G‘alati uchqat - Jimolost strannaya - Lonicera paradoxa Pojark.

**40 (216). Nor shirach (Xulka bola) -SHirach мощпыу - Eremurus robustus Regel**

Maqomi 3. Tyan-SHan va Pomir-Oloydagi areali ajralgan va qisqarib borayotgan endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 100-250 sm ga etadigan ko‘p yillik yirik o‘t. Ildizpoyasi qisqa, nursimon joylashgan, bo‘laklari urchuqsimon yo‘g‘onlashgan. Barglari keng qalami, eni 4-8 sm, silliq. SHingili tigiz, ko‘p gulli, silindr shaklda, uzunligi 35-120 sm. Guloldi bargchalari uchburchak shaklda. SHingilining pastki qismidagi gullarining bandi gulqo‘rg‘onidan 1,5-2 marta uzun. Gulqo‘rg‘on bargchalari yakka tomirli, och pushti rangli. CHangchilari gulqo‘rg‘onidan biroz qisqa. Mevasi - yumaloq, silliq ko‘sakka o‘xshaydi, eni 1,5-2,5 sm. May- iyulda gullaydi, mevasi iyul-avgustda etiladi.

Tarqalishi. Toshkent, Namangan, Jizzax, Samarkand, Farg‘ona, Surxondaryo, Kashkadaryo viloyatlari: G‘arbiy Tyan-SHan va Pomir-Oloyning barcha tizmalari, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘izistonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tog‘ning o‘rta qismidagi mayda jins tuproqli va toshli yonbag‘irlarda o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka va kichik to‘plar hosil kilib o‘sadi. Toshkent viloyati hududi bo‘yicha 100 000 atrofida turi bor.

Ko‘payishi. Urug‘idan va vegetativ yul bilan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari.

Aholi tomonidan terib olinishi va chorva mollarining ko‘plab boqilishi tufayli kamayib bormoqda.

Madaniylashtirilishi. 1954 yildan buyon O‘zR FA Botanika bog‘ida o‘stiriladi.

Muxofaza choralari. CHotqol, Zomin, Xisor, Kitob, Nurota, Surxon qo‘riqxonalarida, Ugom-CHotqol va Zomin milliy tabiat bog‘larida muxofaza kilinadi. Botanika bog‘larida ko‘paytirish lozim.



40- rasm. Nor shirach (Xulka bola) -SHirach мощпыу - Eremurus robustus Regel

**41 (223). Turkiston shotarachasi -Дымyanochka turkestanskaya - Fumariola turkestanica Korsh.**

Maqomi 2. Oloy tizmasidagi juda kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 10-15 sm orasidagi ko‘p yillik, ko‘kimtir o‘t. Poyasi bitta, ingichka, asosidan shoxlangan. Barglari uzun bandli, ikki karra uch bo‘lakka bo‘lingan, tuksiz. YAproqlari 2-3 bo‘lakli. To‘pguli soyabonsimon, kam gulli, shingili barglaridan qisqa. Gullari mayda, ko‘rimsiz, sarg‘ish. Mevasi yongoqcha, uzunligi 3 mm, eni 1 mm, qoramtir rangli, g‘adir-budir. May-iyun oylarida gullab, mevasi iyul-avgustda etiladi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: SHoximardon va Isfayram daryolari xavzalarida tarqalgan. Qirg‘izistonda xam uchraydi.

O‘sish sharoiti. Oxaktoshli koyalarning yoriqlarida o‘sadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Aniqlanmagan.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q.

Muxofaza choralari. O‘simlik arealiga aniqlik kiritish va biologik xususiyatlarini o‘rganish lozim.



41- rasm. Turkiston shotarachasi -Dымyanochka turkestanskaya – Fumariola turkestanica Korsh.

**42 (230). Sertuk buzoqbosh - Galimoknemis voylochnotsvetkovыy - Halimocnemis lasiantha Iljin**

Maqomi 2. Farg‘ona vodiysiga xos areali qisqarib borayotgan kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 25 sm ga etadigan, asosidan shoxlanuvchi, tarvaqaylagan, qisqa tuklar bilan qoplangan, bir yillik etdor o‘t. Barglari ingichka qalami, uzunligi 20-40 mm, pastki tomoni qabariq, ustki tomoni yassi. Gulqo‘rg‘on bargchalari (5) yupqa, uzunligi 6-7 mm, o‘tkir uchli. Mevasi konussimon, asosi yassi, uzun chalkash tuklar bilan qoplangan. Iyul-sentyabr oylarida gullab, meva beradi.

Tarqalishi. Namangan, Farg‘ona viloyatlari: Farg‘ona vodiysida tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Tog‘ etaklarida, toshli-shagalli tuproqlarda, quruq o‘zanlarda o‘sadi.

Soni. Tabiatda yakka-yakka holda tarqalgan.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. CHorva mollari iste’mol qilishi va o‘simlik tarqalgan erlarning o‘zlashtirilishi oqibatida kamayib bormoqda.

Madaniylashtirilishi. O‘zR FA Botanika bog‘i tajriba dalasida o‘stirib ko‘rilganda ijobiy natija bermagan.

Muxofaza choralari. Tabiiy holda o‘sib turgan joylarini saqlab qolish lozim.



42- rasm. Sertuk buzoqbosh - Galimoknemis voylochnotsvetkovыy – Halimocnemis lasiantha Iljin

**43 (232). Drobov sho‘ragi - Solyanka Drobova - Salsola drobovii Botsch.**

Maqomi 3. G‘arbiy Tyan-SHan va Oloy tizmasidagi kamyob endemik tur.

Qisqacha tavsifi.

Bo‘yi 50-70 sm keladigan yarim buta. Bir yillik poyalarining uzunligi 20 sm, oqish, tuksiz, ba’zan g‘adir-budir. Barglari ketma-ket joylashgan, tuksiz, ko‘kimtir, etli, qalami, uzunligi 1,5-2,5 sm, eni 1-1,5 mm, tumtots. To‘pguli yoyiq boshoqsimon. Gulqurg‘on bargchalari chuziq-tuxumsimon yoki chuziq oval shaklida, uzunligi 4-6 mm, pardasimon, tuksiz, rangsiz. Urug‘i yotiq joylashgan. Iyulda gullab, mevasi oqtyabr oyida etiladi.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Farg‘ona vodiysi va Oloy tizmasida tarqalgan. Qozog‘iston va Qirg‘izistonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tosh-shag‘al tuproqli yonbag‘irlarda, ba’zan ola jinslarda va tog‘larning quyi qismida o‘sadi.

Soni. YAkka-yakka holda, ba’zan esa yirik tuplar tashkil qilib o‘sadi.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. O‘simlikning kam urug‘ berishi va urug‘idan yaxshi unib chiqmasligi, shuningdek, u usgan joylarda chorva mollari mo‘ttasil boqilishi sababli soni qisqarib ketmoqda. Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q. Muxofaza choralari. Ishlab chiqilmagan.



43- rasm. Drobov sho‘ragi - Solyanka Drobova - Salsola drobovii Botsch.

**44 (235). Tyan-shan antoxlamisi -Antoxlamis tyanshanskiy -Anthochlamys tianschanica Iljin**

Maqomi 2. Farg‘ona vodiysida tarqalgan kamyob endemik tur.

Qisqacha tavsifi. Bir yillik, sershox o‘t o‘simlik, bo‘yi 30-90 sm, pastki qismi tuksiz, yuqori qismi qisqa, jingalak tukli. Gullari ikki jinsli, ro‘vaksimon to‘pgulda o‘rnashgan. CHangchisi 5 ta. Gulqo‘rg‘oni pardasimon. Barglari oddiy, yassi, pastkilari nashtarsimon, bandli, yuqorisidagilari qalami, uchi o‘tkir. Guloldi bargi nashtarsimon, uchi o‘tkir, gulqo‘rg‘onidan uzun, mevasidan kichik. Mevasining eni 3 mm, uchi chuqurchali. Avgust va sentyabrda gullab, mevalaydi.

Tarqalishi. Farg‘ona va Namangan viloyatlari: G‘arbiy Tyan-SHan (Farg‘ona vodiysining shimoli-sharkiy, shimoli-g‘arbiy qismi) da tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Tog‘larning pastki qismlaridagi chag‘irtoshli tuproqlarda o‘sadi. Soni. Asosan, yakka-yakka xolda o‘sadi. Ayrim joylarda kichik-kichik to‘plar hosil kiladi. Soni aniqlanmagan. Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. CHorva boqilishi tufayli kamayib ketgan. Madaniylashtirilishi. Bu xakida ma’lumotlar yo‘q. Muxofaza choralari. Qo‘riqlanmaydi.



44- rasm. Tyan-shan antoxlamisi -Antoxlamis tyanshanskiy -Anthochlamys tianschanica Iljin

**45 (236). Farg‘ona donasho‘ri - Spaynotsvetnik Ferganskiy - Gamanthus ferganicus Iljin**

Maqomi 2. Farg‘ona vodiysida tarqalgan kamyob endemik tur.

Qisqacha tavsifi. Bir yillik o‘t o‘simlik, bo‘yi 5-50 sm, asosidan shoxlangan, qisqa, oddiy, ingichka, jingalak tukli, keyinroq pastki qismi tuksizlanadi. Barglari karama-karshi urnashgan, kalami, yugonroq, uchida uzun, bugimli, erta tu- shib ketadigan bir bog‘lam tukli, uzunligi пы. 15-20 sm, eni 2-2,5 mm. Guloldi barglari karama-karshi o‘rnashgan, qo‘shilmagan, gulyonbargchalaridan uzun. Gulyonbargchalari gulqo‘rg‘onidan qisqa. Gulqo‘rg‘on bo‘laklari nashtarsimon, uzunligi 4-6 mm, sirti tukli. CHangdoni kalami, uzunligi 2,5-3 mm. Iyun-iyulda gullab, mevasi etiladi.

Tarqalishi. Namangan va Farg‘ona viloyatlari: Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida tarqalgan. O‘sish sharoiti. Tog‘ etaklaridagi sho‘rlangan, mayda chag‘irtoshli tuproqlarda o‘sadi. Soni. Tabiatda yakka-yakka yoki kichik jamoalar xosil kilib o‘sadi. Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Erlarning dehqonchilik qilish uchun o‘zlashtirilishi tufayli qisqarib ketgan. Madaniylashtirilishi. Bu haqida ma’lumotlar yo‘q. Muxofaza choralari. Muxofaza kilinmaydi.



45- rasm. Farg‘ona donasho‘ri - Spaynotsvetnik Ferganskiy - Gamanthus ferganicus Iljin

**46 (242). Komarov bo‘zboshi - Zmeegolovnik Komarova - Dracocephalum komarovii Lipsky**

Maqomi 2. G‘arbiy Tyan-SHan va Pomir Oloydagi areali bo‘lingan, kamayib borayotgan endemiko‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 10-20 sm oralig‘idagi ko‘p yillik o‘t. Bargi uchburchak-tuxumsimon, uchi o‘tkir, asosi yuraksimon, chetlari tekis, qalin, qisqa tukli, qisqa bandli, yuqoridagilari bandsiz. Poyasi ko‘p, pastki qismi yog‘ochlanuvchan, tik yoki biroz qiyshaygan. Guli poyaning yuqori qismidagi barglarning qo‘ltig‘ida bittadan qisqa bandlarda o‘rnashgan. Tojbargi sariq. Iyul-avgustda gullab, mevasi avgust-sentyabrda etiladi.

Tarqalishi. Toshkent va Namangan viloyatlari: CHotqol tizmasi (Qizilnura tog‘i, Maydontol va Qorabuloq daryolari voxalari hamda Orashon dovoni), Qurama tizmasi (Lashkarak, Gushsoy) da tarqalgan. Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda ham uchraydi.

O‘sish sharoiti. Tog‘ning yuqori qismida, tosh- shag‘alli tuproqlarda o‘sadi.

Soni. Tabiiy zaxiralari kam bo‘lib, bir-biridan ajralgan to‘plar hosil qilgan xolda o‘sadi. Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Maxalliy axoli gullab turgan paytida dorivor o‘simlik sifatida ko‘plab yig‘ib oladi. YOz faslida esa bu erlarda chorva mollari boqiladi. Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q.

Muxofaza choralari. O‘simlik tarqalgan maydonlarning bir qismi CHotqol biosfera qo‘riqxonasi va Ugom-CHotqol milliy tabiat bog‘i xududida bo‘lib, muxofaza ostiga olingan.



46- rasm. Komarov bo‘zboshi - Zmeegolovnik Komarova - Dracocephalum komarovii Lipsky

**47 (251). Margarita marmaragi - SHalfey Margaritы - Salvia margaritae Botsch.**

Maqomi 2. Oloy tizmasidagi kamyob endemik o‘simlik.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 50 sm ga etadigan yarim buta. Poyalari ko‘p, asosidan shoxlangan. Barglari mayda, nashtarsimon, bandsiz. Kosacha barglarining uzunligi 18 mm, binafsha rangli, bezchasimon tukli. Tojbarglari to‘k binafsha rangli, bezchasimon tukli, uzunligi 30-40 mm. Iyunda gullab, mevasi iyul oyida etiladi. Manzarali hamda dorivor o‘simlik.

Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Oloy tizmasidagi SHoximardon daryosi voxasida tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Tog‘larning o‘rta qismida toshli va mayda jins-toshli ochik yonbag‘irlarda va qoyalarda o‘sadi.

Soni. SHoximardon daryosi xavzasida 10-15 tupi borligi aniqlangan. Tuplarining soni noma’lum.

Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi.

O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Urug‘idan yaxshi unmasligi, chorva mollari boqilishi, dam olish uylari qurilishi uning qisqarib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q.

Muxofaza choralari. Aloxida muxofaza choralari ishlab chiqilmagan. Bu turni madaniy sharoitda ekib o‘rganish lozim.



47- rasm. Margarita marmaragi - SHalfey Margaritы - Salvia margaritae Botsch.

**48 (301). Angren ugamiyasi - Ugamiya angrenskaya - Ugamia angrenica (Krasch.) Tzvelev**

Maqomi 2. G‘arbiy Tyan-SHanning kamyob endemik usimligi.

Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 2-8 sm ga etadigan yarimbutacha. Ko‘p sonli poyalari zich joylashib, gilamsimon chim xosil diladi. Barglari ko‘p, uzunligi 1,2 sm, eni 0,6 mm gacha bo‘lib, zich joylashgan tuklari kulrang-yashil tusga kiradi. Savatchalari yakka-yakka, juda kalta va egilgan gulbandlarda joylashgan. Gul bargchalarining cheti qo‘ng‘ir, to‘q qo‘ng‘ir xoshiyali. Nay gullarining tojibargi 4-5,5 mm uzunlikda. Urug‘chalari 4-5,5 mm, ko‘ndalang joylashgan 10-15 ta qovurg‘ali bo‘lib, ulardan 5 tasi sertuk, aloxida ajralib turadi. Iyul-avgustda gullab, mevasi avgust-sentyabrda pishadi.

Tarqalishi. Toshkent va Namangan viloyatlari: Qurama (Arashan, Jardan dovoni), CHotqol (CHotqol biosfera qo‘riqxonasi), Piskom (Odsarsoy) tizmalarida tarqalgan. O‘zbekistondan tashqarida: Qozog‘iston (Talas Olatog‘i, Ugom-Baxmalkul tizmalari) va Qirg‘izistonda (Santalash tizmasi) tarqalgan.

O‘sish sharoiti. Tog‘ning yuqori qismidagi toshli, shag‘alli yonbag‘irliklarda, granit bo‘laklari orasida, to‘qilmalar atrofida o‘sadi. Soni. Aniqlanmagan. Ko‘payishi. Urug‘idan ko‘payadi. O‘simlik soni va arealining o‘zgarish sabablari. Aniqlanmagan. Madaniylashtirilishi. Ma’lumotlar yo‘q. Muxofaza choralari. CHotqol biosfera qo‘riqxonasida va Ugom-CHotdol milliy tabiat bog‘ida muxofaza qilinadi.



48- rasm. Angren ugamiyasi - Ugamiya angrenskaya - Ugamia angrenica (Krasch.) Tzvelev

## 3.2. Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarning hayotiy shakllari.

Farg'ona vodiysining o'simliklar qoplamida tarqalgan Qizil kitobga kiritilgan o'simliklar hayotiy shakllari (K.Raunker klassifikatsiyasi, 1934) bo'yicha tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

Farg'ona vodiysining o'simliklar qoplamida tarqalgan Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarning hayotiy shakllari (K.Raunker klassifikatsiyasi, 1934).

| Hayotiy shakllari | O'simliklar soni |
|---|---|
| Fanerofit (daraxtlar) | - |
| Xamefit (buta, yarim buta) | 9 |
| Gemikriptofit (ko'pyillik o't) | 22 |
| Kriptofit (ildizpoyali, piyozchali) | 14 |
| Terofit (bir yillik) | 3 |
| Jami: | 48 |

Jadvalda keltirigan ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona vodiysining o'simliklar qoplamida tarqalgan Qizil kitobga kiritilgan 48 tur o'simliklardan fanerofitlar uchramadi, xamefitlardan 9 tur, gemikriptofitlardan 22 tur, kriptofitlardan 14 tur, terofitlardan 3 tur aniqlandi.

### Xamefit o'simliklar

1 (32). Юлинган астрагал -Астрагал оборванный -Astragalus rhacodes Bunge

2 (124). Альберт қисрони -Викстремия Альберта (рестелла Альберта) - Wikstroemia alberti (Regel) Domke (= Restella albertii (Regel) Pobed.)

3 (170). Нозик қандим -Кандым изящный - Calligonum elegans Drobow

4 (171). Охактош қандими -Кандым известковый - Calligonum calcareum Pavlov

5 (189). Бигизсимон оқтикан-Колючелистник беловатый - Acanthophyllum albidum Schischk.

6 (210). Ғалати учқат - Жимолость странная - Lonicera paradoxa Pojark.

7 (232). Дробов шўраги - Солянка Дробова - Salsola drobovii Botsch.

8 (251). Маргарита мармараги - Шалфей Маргариты - Salvia margaritae Botsch.

9 (301). Ангрен угамияси - Угамия ангренская - Ugamia angrenica (Krasch.) Tzvelev.

**Gemikriptofit o'simliklar**

1. Кнорринг исфараги Delphinium knorringianum B. Fedtsch.

2 (7). Ольга инкарвиллеяси -Инкарвиллея Ольги - Incarvillea olgae Regel

3(12). Борис астрагали -Астрагал бориса - Astragalus borissianus Gontsoh.

4 (17). Зархал астрагал -Астрагал позолоченный - Astragalus auratus Gontsch.

5 (18). Иккиранг астрагал -Астрагал двухцветкововидный – Astragalus dianthoides Boriss.a

6 (36). Қизғиш астрагал - Астрагал красноватый - Astragalus rubellus Gontsch.

7 (41). Жанубий Фарғона астрагали - Астрагал южноферганский - Astragalus austroferganicus Kamelin et R. M. Vinogr.

8 (54). Ангрен тангаўти - Копеечник ангренский - Hedysarum angrenicum Korotkova

9 (80). Майда мевали дорема -Дорема мелкоплодная - Dorema microcarpum Korovin

10 (89). Коржинский ковраги -Ферула Коржинского- Ferula korshinskyi Korovin

11 (90).Ўринбосар коврак- Ферула замещающая - Ferula vicaria Korovin

12 (92). Федченко пилдироқмеваси -Омежник федченковский – Oenanthe fedtschenkoana Koso-Pol.

13 (97). Сариқ қирқгул -Фергания многоцветковая - Fergania polyantha (Korovin) Pimenov

14 (105). Коровин ломатокарпаси-Окаймленноплодник Коровина - Lomatocarpa korovinii Pimenov

15 (108). Олой хиёли-Пузырница алайская -Physochlaina alaica Korotkova ex Kovalevsk.

16 (110). Тошбузар паррияси -Паррия камнеломка - Parrya saxifraga Botsch. et Vved.

17 (111). Қурама паррияси - Паррия кураминская - Parrya kuramensis Botsch.

18 (128). Холмон исирғагули -Рябчик Эдуарда - Fritillaria eduardii Regel

19 (182). Качимсимон етмак (Бех) -Аллохруза качимовидная - Allochrusa gypsophiloides (Regel) Schischk.

20 (216). Нор ширач (Хулка бола) -Ширач мощный - Eremurus robustus Regel

21 (223). Туркистон шотарачаси -Дымяночка туркестанская - Fumariola turkestanica Korsh.

22 (242). Комаров бўзбоши - Змееголовник Комарова - Dracocephalum komarovii Lipsky

**Kriptofit o'simliklar**

1 (2). Ок парпи - Aconitum talassicum Popov

2 (74). Винклер гулсафсари - Ирис Винклера- Iris winkleri Regel

3 (129). Введенский лоласи -Тюльпан Введенского - Tulipa vvedenskyi Botschantz.

4 (131). Фарғона лоласи, Жавғаза лола -Тюльпан ферганский -Tulipa ferganica Vved.

5 (137). Сарғиш лола -Тюльпан волосистотычиночный - Tulipa dasystemon (Regel) Regel

6 (139). Кауфман лоласи, Тарғил лола - Тюльпан Кауфмана - Tulipa kaufmanniana Regel

7 (142). Шубҳали лола, Чипор лола -Тюльпан сомнительный -Tulipa dubia Vved.

8 (145). Қизил лола (Грейг лоласи) -Тюльпан Грейга - Tulipa greigi Regel

9 (146). Шарипов лоласи, Гулбарра -Тюльпан Шарипова - Tulipa scharipovii Tojibaev

10 (147). Оралик лола -Тюльпан промежуточный - Tulipa intermedia Tojibaev etj. de Groot

11 (194). Афлотун пиёзи -Лук афлатунский - Allium aflatunense B. Fedtsch

12 (196). Олой пиёзи -Лук алайский - Allium alaicum Vved.

13 (198). Бакхауз пиёзи -Лук Бакхауза - Allium bakhousianum Regel (= A. gulczense O. Fedtsch.)

14 (206). Яшил гулли пиёз -Лук зеленоватый - Allium viridiflorum Pobed.

**Terofit o'simliklar**

42 (230). Сертук бузоқбош - Галимокнемис войлочноцветковый - Halimocnemis lasiantha Iljin

44 (235). Тянь-шань антохламиси -Антохламис тяньшанский -Anthochlamys tianschanica Iljin

45 (236). Фарғона донашўри - Спайноцветник Ферганский - Gamanthus ferganicus Iljin

### 3.3. Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarning kamyoblik darajasi bo'yicha kategoriyalari.

Yuqorida aytilganidek, Qizil kitobga kiritilgan o'simlik turlari Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan 4 guruhga (kategoriyaga) ajratilgan: 0 Yo'qolgan yoki yo'qolish arafasidagi turlar, 1. Yo'qolib borayotgan turlar, 2. Kamyob turlar, 3. Kamayib borayotgan turlar.

Quyida Farg'ona vodiysining o'simliklar qoplamida tarqalgan Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarning kamyoblik darajasi bo'yicha tahlilini keltiramiz (2-jadval).

2-jadval

Quyida Farg'ona vodiysining o'simliklar qoplamida tarqalgan Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarning kamyoblik darajasi bo'yicha tahlilini

| Kamyoblik darajasi | Soni |
|---|---|
| 0. Yo'qolgan yoki yo'qolish arafasidagi turlar. | 2 |
| 1. Yo'qolib borayotgan turlar. | 15 |
| 2. Kamyob turlar. | 19 |

| | |
|---|---|
| 3. Kamayib borayotgan turlar. | 12 |
| Jami: | 48 |

**0. Yo’qolgan yoki yo’qolish arafasidagi turlar.**

1 (41). Жанубий Фарғона астрагали - Астрагал южноферганский - Astragalus austroferganicus Kamelin et R. M. Vinogr.

2 (92). Федченко пилдироқмеваси -Омежник федченковский – Oenanthe fedtschenkoana Koso-Pol.

**1. Yo’qolib borayotgan turlar.**

1 (12). Борис астрагали -Астрагал бориса - Astragalus borissianus Gontsoh.

2 (36). Қизғиш астрагал - Астрагал красноватый - Astragalus rubellus Gontsch.

3 (54). Ангрен тангаўти - Копеечник ангренский - Hedysarum angrenicum Korotkova

4 (90).Ўринбосар коврак- Ферула замещающая - Ferula vicaria Korovin

5 (97). Сариқ қирқгул -Фергания многоцветковая - Fergania polyantha (Korovin) Pimenov

6 (105). Коровин ломатокарпаси-Окаймленноплодник Коровина - Lomatocarpa korovinii Pimenov

7 (108). Олой хиёли-Пузырница алайская -Physochlaina alaica Korotkova ex Kovalevsk.

8 (111). Қурама паррияси - Паррия кураминская - Parrya kuramensis Botsch.

9 (128). Холмон исирғагули -Рябчик Эдуарда - Fritillaria eduardii Regel

10 (171). Охактош қандими -Кандым известковый - Calligonum calcareum Pavlov

11 (194). Афлотун пиёзи -Лук афлатунский - Allium aflatunense B. Fedtsch.

12 (196). Олой пиёзи -Лук алайский - Allium alaicum Vved.

13 (198). Бакхауз пиёзи -Лук Бакхауза - Allium bakhousianum Regel (= A. gulczense O. Fedtsch.)

14 (206). Яшил гулли пиёз -Лук зеленоватый - Allium viridiflorum Pobed.

15 (210). Ғалати учқат - Жимолость странная - Lonicera paradoxa Pojark.

## 2. Kamyob turlar.

1. Кнорринг исфараги Delphinium knorringianum B. Fedtsch.

2 (17). Зархал астрагал -Астрагал позолоченный - Astragalus auratus Gontsch.

3 (18). Иккиранг астрагал -Астрагал двухцветкововидный – Astragalus dianthoides Boriss.

4 (32). Юлинган астрагал -Астрагал оборванный -Astragalus rhacodes Bunge

5 (74). Винклер гулсафсари - Ирис Винклера- Iris winkleri Regel

6 (80). Майда мевали дорема -Дорема мелкоплодная - Dorema microcarpum Korovin

7 (89). Коржинский ковраги -Ферула Коржинского- Ferula korshinskyi Korovin

8 (110). Тошбузар паррияси -Паррия камнеломка - Parrya saxifraga Botsch. et Vved.

9 (131). Фарғона лоласи, Жавғаза лола -Тюльпан ферганский -Tulipa ferganica Vved.

10 (146). Шарипов лоласи, Гулбарра -Тюльпан Шарипова - Tulipa scharipovii Tojibaev

11 (147). Оралик лола -Тюльпан промежуточный - Tulipa intermedia Tojibaev etj. de Groot

12 (170). Нозик қандим -Кандым изящный - Calligonum elegans Drobow

13 (223). Туркистон шотарачаси -Дымяночка туркестанская - Fumariola turkestanica Korsh.

14 (230). Сертук бузоқбош - Галимокнемис войлочноцветковый - Halimocnemis lasiantha Iljin

15 (235). Тянь-шань антохламиси -Антохламис тяньшанский -Anthochlamys tianschanica Iljin

16 (236). Фарғона донашўри - Спайноцветник Ферганский - Gamanthus ferganicus Iljin

17 (242). Комаров бўзбоши - Змееголовник Комарова - Dracocephalum komarovii Lipsky

18 (251). Маргарита мармараги - Шалфей Маргариты - Salvia margaritae Botsch.

19 (301). Ангрен угамияси - Угамия ангренская - Ugamia angrenica (Krasch.) Tzvelev

### 3. Kamayib borayotgan turlar.

1 (2). Ок парпи - Aconitum talassicum Popov

2 (7). Ольга инкарвиллеяси -Инкарвиллея Ольги - Incarvillea olgae Regel

3 (124). Альберт қисрони -Викстремия Альберта (рестелла Альберта) - Wikstroemia alberti (Regel) Domke (= Restella albertii (Regel) Pobed.)

4 (129). Введенский лоласи -Тюльпан Введенского - Tulipa vvedenskyi Botschantz.

5 (137). Сарғиш лола -Тюльпан волосистотычиночный - Tulipa dasystemon (Regel) Regel

6 (139). Кауфман лоласи, Тарғил лола - Тюльпан Кауфмана - Tulipa kaufmanniana Regel

7 (142). Шубҳали лола, Чипор лола -Тюльпан сомнительный -Tulipa dubia Vved.

8 (145). Қизил лола (Грейг лоласи) -Тюльпан Грейга - Tulipa greigi Regel

9 (182). Качимсимон етмак (Бех) -Аллохруза качимовидная - Allochrusa gypsophiloides (Regel) Schischk.

10 (189). Бигизсимон оқтикан-Колючелистник беловатый - Acanthophyllum albidum Schischk.

11 (216). Нор ширач (Хулка бола) -Ширач мощный - Eremurus robustus Regel

12 (232). Дробов шўраги - Солянка Дробова - Salsola drobovii Botsch.

Ushbu tahlildan ko’rinib turibdiki, Farg’ona vodiysining o’simliklar qoplamida tarqalgan o’simliklarning 2 turi yo’qolgan yoki yo’qolish arafasidagi turlar, 15 turi yo’qolib borayotgan turlar, 19 turi kamyob turlar va 12 turi kamayib borayotgan turlar sifatida Qizil kitobga kiritilgan.

Farg’ona vodiysining o’simliklar qoplamida tarqalgan Qizil kitobga kiritilgan jami 48 turdan 23 tasi Farg'ona viloyatida, 14 tasi Namangan viloyati, 1 tasi Andijon viloyatida va 10 tasi Farg'ona vodiysida uchraganligi ma’lum bo’ldi

## 3.4. O‘zbekiston Respublikasi qizil kitobiga Farg‘ona vodiysidan kiritilgan o‘simlik turlarining tahlili

O‘zbekiston qizil kitobining 1984 yildagi nashrida 163 ta, Namangan viloyati bo‘yicha 11 ta o‘simlik turi ro‘yxatga olingan. Ularning kamyoblik darajasi tahlil qilib chiqilganda xududda yo‘qolib ketgan yoki yo‘qolib ketish arafasidagi turlar 1 ta, noyob turlar 7 ta, kamayib borayotganlari 3 ta turni tashkil etadi.

Farg‘ona viloyatidan 19 ta tur O‘zbekiston qizil kitobiga (1984) kiritilgan. Ularning kamyoblik darajasi bo‘yicha yo‘qolgan yoki yo‘qolish arafasidagi turlar faqat 1 ta turdan iborat. Yo‘qolib borayotganlari 4 ta, noyob turlar 10 ta, kamayib borayotganlari 4 ta turdan iborat.

Andijon viloyati xududidan 3 tur kiritilgan, ulardan 1 tur yo‘qolib borayotgan, 1 tur noyob va 1 tur kamayib borayotgan tur hisoblanadi.

Kamayib borayotgan turlarning soni jixatidan Farg‘ona viloyati yuqori (19 tur) ekanligi ma’lum bo‘ldi.

O‘zbekiston qizil kitobining navbatdagi nashri 1998 yil chop etilgan. Unga 301 tur kiritilgan. Ushbu nashrda Namangan viloyati xududidan 12 tur ro‘xatga olingan. Bundan ko‘rinib turibdiki, olingan ma’lumotlarga qaraganda 1984 yilga nisbatan 1 turga ko‘paygan. Kamyoblik darajasiga ko‘ra, yo‘qolgan yoki yo‘qolish arafasidagi turlar soni 1 tadan 2 taga, noyob turlar soni 7 ta o‘rniga 8 taga, kamayib borayotgan turlar soni avvalgiga nisbatan 1 taga kamaygan. Bu erda kategoriyalar bo‘yicha 1 va 2 darajalardagi turlar soni ortganini ko‘rish mumkin.

Farg‘ona viloyati uchun O‘zbekiston qizil kitobining 1998 yilgi nashrida 29 tur ro‘yxatga olingan. Ularning kamyoblik darajasi tahlil qilinganda yo‘qolgan yoki yo‘qolib borish arafasida turgan turlar soni 1 taga ortganligini, noyob turlar 10

tur o‘rniga 18 taga, kamayib borayotgan turlar esa oldingi holatda saqlanib qolganligini ko‘ramiz.

Andijon viloyati bo‘yicha 1998 yilgi O‘zbekiston qizil kitobida 1 ta tur ro‘yxatga olingan. 1984 yildagi nashrga nisbatan (3 tur) 2 ta turga qisqarib, faqat 1 ta tur noyob o‘simlik sifatida qoldirilgan. Farg‘ona vodiysidan O‘zbekiston qizil kitobiga kiritilgan umumiy turlar soni  42 tani tashkil etadi.

2006 yilga kelib O‘zbekiston qizil kitobida o‘simliklar ro‘yxatiga  305 tur kiritilgan. Oldingi nashrga qaraganda (301 tur) 4 ta turga ortdi. Ushbu nashrga Namagan viloyatidan 11 tur kiritilgan, ulardan yo‘qolgan va yo‘qolib borish arafasida turgan turlar yo‘q. Yo‘qolib borayotgan turlar 2 taya’ni avvalgi holatini saqlagan, noyob turlar soni ham o‘zgarmagan (8 ta), kamayib borayotgan turlar avvalgi 2 ta turga  nisbatan 1 taga kamaygan.

Farg‘ona viloyati bo‘yicha 2006 yilda 26 ta tur ro‘yxatga olingan. Ulardan 2 tur yo‘qolgan va yo‘qolish arafasidagi turlar hisoblanib, avalgi holatini saqlab qolgan, yo‘qolib borayotgan turlar soni 5 taligicha qolgan, areallarida o‘zgarishlar ro‘y bermagan. Noyob turlar avvalgi nashrga nisbatan (18 tur) 2 turga kamaygan, ya’ni 16 turni tashkil etgan. Kamayib borayotgan turlar 3 ta turni tashkil etib, avvalgiga nisbatan  (4 tur) 1 ta turga kamaygan.

Andijon viloyatida 2006 yildagi O‘zbekiston qizil kitobining nashrida ham faqat 1 ta tur ro‘yxatga olinib, kamyob tur darajasiga tegishli. 2006 yilga kelib frag‘ona vodiysidan O‘zbekiston qizil kitobiga kiritilgan o‘simliklar soni  38 tani tashkil etdi.

O‘zbekiston qizil kitobining 2009 yildagi navbatdagi nashriga 324 tur o‘simliklar kiritilgan. Bu turlarning 16 tasi Namangan viloyati xududiga tegishli. Ulardan kamyoblik darajasiga ko‘ra yo‘qolgan va yo‘qalib ketish arafasida turgan turlar aniqlanmagan. Yo‘qolib borayotgan turlar soni avvalgiga nisbatan (2006) 2 tadan 4 taga, kamyob turlar 8 tadan 9 taga , kamayib borayotganlari esa 1 tadan 3 taga ortganligini ko‘rish mumkin. 2006 yildagiga nisbatan 2009 yil Namangan viloyatida bunday turlar soni 5 taga ko‘paygan.

Farg‘ona viloyati bo‘yicha 32 ta tur O‘zbekiston qizil kitobi saxifalaridan o‘rin egallagan. Qiyosiy tahlillarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, avvalgi nashrlarga nisbatan (2006), bu nashrda yo‘qolgan va yo‘qolish arafasidagi turlar soni 1 tadan 3 taga, yo‘qolib borayotgan turlar soni 5 tadan 8 taga, kamyob turlar 16 tadan 20 taga ortganini va kamayib borayotgan 3 ta turni esa 1 taga kamayganligini ko‘ramiz.

Andijon viloyati uchun faqat 1 ta o‘simlik yo‘qolib borayotgan tur sifatidagina e’tiborga olingan. Qolgan kategoriya bo‘yicha tur areallarini o‘zgarishlari viloyat xududida kuzatilmagan.

O‘zbekiston qizil kitobiga (1984, 1998, 2006, 2009, 2016) kiritilgan o‘simliklaning kategoriyalari bo‘yicha qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysida Farg‘ona viloyati kamayib borayotgan turlar soni jixatidan ancha yuqori ekanligi aniqlandi. quyidagi jadvalda viloyatlar bo‘yicha tahlil qilingan o‘simliklarni Xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan 4 ta guruxga bo‘linishi kiritilgan (3, 4 -jadval).

3-jadval

O‘zbekiston qizil kitobidagi o‘simliklar ro‘yxatining Farg‘ona vodiysi bo‘yicha taqsimlanishi

| O‘zbekiston qizil kitobining 1984 yil nashridagi o‘simliklar ro‘yxatining Farg‘ona vodiysi bo‘yicha taqsimlanishi | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Kamyoblik darajasi | Namagan | Farg‘ona | Andijon | Umumiy turlar soni |
| 0-daraja | - | 1 | - | 1 |
| 1-daraja | 1 | 4 | 1 | 6 |
| 2-daraja | 7 | 10 | 1 | 18 |
| 3-daraja | 3 | 4 | 1 | 8 |
| Jami: | 11 | 19 | 3 | 33 |
| O‘zbekiston qizil kitobining 1998 yil nashridagi o‘simliklar ro‘yxatining Farg‘ona vodiysi bo‘yicha taqsimlanishi | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 0-daraja | - | 2 | - | 2 |
| 1-daraja | 2 | 5 | - | 7 |
| 2-daraja | 8 | 18 | 1 | 27 |
| 3-daraja | 2 | 4 | - | 6 |
| Jami: | 12 | 29 | 1 | 42 |
| O‘zbekiston qizil kitobining 2006 yil nashridagi o‘simliklar ro‘yxatining Farg‘ona vodiysi bo‘yicha taqsimlanishi | | | | |
| 0-daraja | - | 2 | - | 2 |
| 1-daraja | 2 | 5 | - | 7 |
| 2-daraja | 8 | 16 | 1 | 25 |
| 3-daraja | 1 | 3 | - | 4 |
| Jami: | 11 | 26 | 1 | 38 |
| O‘zbekiston qizil kitobining 2009 yil nashridagi o‘simliklar ro‘yxatining Farg‘ona vodiysi bo‘yicha taqsimlanishi | | | | |
| 0-daraja | - | 3 | - | 3 |
| 1-daraja | 4 | 8 | 1 | 13 |
| 2-daraja | 9 | 20 | - | 29 |
| 3-daraja | 3 | 1 | - | 4 |
| Jami: | 16 | 32 | 1 | 49 |
| O‘zbekiston qizil kitobining 2016 yil nashridagi o‘simliklar ro‘yxatining Farg‘ona vodiysi bo‘yicha taqsimlanishi | | | | |
| Kamyoblik darajasi | Namagan | Farg‘ona | Andijon | Umumiy turlar soni |
| 0-daraja | - | 2 | - | 2 |
| 1-daraja | 5 | 9 | 1 | 15 |
| 2-daraja | 9 | 9 | 1 | 19 |
| 3-daraja | 7 | 5 | | 12 |
| Jami: | 21 | 25 | 2 | 48 |

O‘zbekiston Respublikasi qizil kitobiga Farg‘ona vodiysidan kiritilgan o‘simlik turlarining yillar kesimidagi tahlili

4-jadval

| Yillar | Turlar soni |
|---|---|
| 1984 | 33 |
| 1998 | 42 |
| 2006 | 38 |
| 2009 | 49 |
| 2016 | 48 |




48- rasm. O‘zbekiston Respublikasi qizil kitobiga Farg‘ona vodiysidan kiritilgan o‘simlik turlarining yillar kesimidagi tahlili.

Jadvalda keltirilgan raqamlarga e’tibor berilsa O‘zbekiston qizil kitobining 1984 yilgi nashriga jami 163 tur kiritilgan bo‘lsa, ulardan 33 tur Farg‘ona vodiysiga to‘g‘ri keladi. Bu umumiy O‘zbekiston qizil kitobiga kiritilgan o‘simliklarni 20% ni tashkil etadi. 1998 yilgi nashrida 301 turdan 42 ta tur Farg‘ona vodiysiga to‘g‘ri keladi, bu esa 14 % ni tashkil etadi. 2006 yildagi nashrda esa jami 305 o‘simlik turi kiritilgan, undan 38 tur Farg‘ona vodiysiga to‘g‘ri keladi, bu ko‘rsatkich esa 12 % ni tashkil etadi. 2009 yildagi nashrida O‘zbekiston qizil kitobiga 324 ta o‘simlik turi kiritilgan, ulardan 49 tur Farg‘ona

vodiysiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekiston qizil kitobiga kiritilgan o‘simliklarni 15 % ni tashkil etadi.

2016 yildagi nashrida O‘zbekiston qizil kitobiga 313 ta o‘simlik turi kiritilgan, ulardan 48 tur Farg‘ona vodiysiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekiston qizil kitobiga kiritilgan o‘simliklarni 15 % ni tashkil etadi.

Demak, 1984 yildan to 2016 yilgacha ya’ni 32 yil davomida Farg‘ona vodiysidan O‘zbekiston qizil kitobiga kiritilgan turlar soni 15 taga ortganligini ko‘rish mumkin. Bu holatni ro‘y berishining asosiy sabablari, erlarni ko‘plab o‘zlashtirish, chorva mollarini tartibsiz boqilishi, ayniqsa, antropogen omillarning salbiy ta’siri natijasi ekanligini bilish mumkin.

# XULOSA

O‘zbekiston respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o‘simliklarning ko‘rsatkichlarini qiyosiy o‘rganish (Farg‘ona vodiysi misolida) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Farg’ona vodiysining o’simliklar qoplamida Qizil kitobga kiritilgan o’simliklarning 48 turi tarqalgan.

2. Farg’ona vodiysining o’simliklar qoplamida tarqalgan Qizil kitobga kiritilgan 48 tur o’simliklardan fanerofitlar uchramadi, xamefitlardan 9 tur, gemikriptofitlardan 22 tur, kriptofitlardan 14 tur, terofitlardan 3 tur aniqlandi.

3. Farg’ona vodiysining o’simliklar qoplamida tarqalgan o’simliklarning 2 tur “0” yo’qolgan yoki yo’qolish arafasidagi turlar,15 tur “1” yo’qolib borayotgan turlar, 19 tur “2” kamyob turlar, 12 tur “3” kamayib borayotgan turlar Qizil kitobga kiritilgan.

4. Farg’ona vodiysining Qizil kitobga kiritilgan o’simliklaridan eng ko’p tur (23) Farg’ona viloyatiga to’g’ri keldi.

5. Farg’ona vodiysida tarqalgan va Qizil kitobga kiritilgan o’simliklardan sariq shirach (Eremurus luteus), ulug’vor lola (Tulipa ingens), gipsli flomoides (Phlomoides gypsacea), fedchenko kovragi (Ferula fedtschenkoana), yovvoyi sallagul (Paeonia hybrida), sharq chinori (Platanus orientalis), kachimsimon yetmak (Allochrusa gypsophiloides) Margarita marmaragi (Salvia margaritae Botsch.) turlaridan xalq tabobatida, qishloq xo’jaligida, farmasevtika sanoatida kehg foydalaniladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmedov R. Farg‘ona vodiysining dorivor o‘simliklari. - Farg‘ona, 2014. -B. 24-29.

2. Pratov O’, Nabiev M. O’zbekiston yuksak o’simliklarining zamonaviy tizimi. - Toshkent, 2007. -B. 16-21.

3. Gorbunov B. Klassifikatsiya pochv Uzbekistana. - Tashkent, Izd-vo Uzb. Filial geogr., 1962. -S. 78-81.

4. Granitov I., Pyataeva A., Aleksandrova E. Rastitelnost. Ferganskaya oblast. 1958. -S. 35-43.

5. Jo‘raev E., Jo‘raeva D., Nabiev M., Mirzaev M. SHifobaxsh o‘simliklar. -Toshkent, Mehnat, 1992. -B. 42-45.

6. Zakirov P. Klassifikatsiya rastitelnosti Sredney Azii. O‘zbekiston biologiya jurnali, 1989. -S. 32-39.

7. Karimov V., SHomaxmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar. - Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, - 1993. -B. 23-32.

8. Kollektiv. Flora Uzbekistana. t I-VI. -Izd-vo AN UzSSR., - 1962. -S. 106-114.

9. Kursanov A. va boshqalar. Botanika. II tom. - Toshkent, 1963. -B. 112-121.

10. Murdalaev YU. O‘zbekistonda vatan topgan dorivor o‘simliklar. -Toshkent, Fan. -B. 36-43.

11. Nabiev M. Botanika. Atlas-lug‘ati. - Toshkent, 1969. -B. 19-28.

12. Nabiev M. Sabzavot, rezavor mevalar, ziravorlar xosiyati. - Toshkent, Mehnat, 1990. -B. 21-25.

13. Nabiev M., SHalnyov V., Ibroximov A. SHifobaxsh ne’matlar. Toshkent, Mehnat, 1989. -B. 63-71.

14. Sahobiddinov S. O‘simliklar sistematikasi. II tom Gulli o‘simliklar. - Toshkent, O‘qituvchi, 1978. -B. 101-124.

15. Xamidov A., Nabiev M., Odilov T. O‘zbekiton o‘simliklari aniqlagichi. - Toshkent, O‘qituvchi, 1987. -B. 96-116.

16. Xojimatov K., Allayorov M. O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari va ularni muhofaza etish. O‘zFA ma’ruzalari, -Toshkent, 1994. -B. 39-42.

17. Xojimatov K., Yo‘ldoshev K., SHog‘ulomov U., Xojimatov O. SHifobaxsh giyoxlar dardlarga malham. - Toshkent, O‘qituvchi, 1995. -B. 84-92.

18. Xojimatov K. O‘zbekistonning xushbo‘y va xushta’m o‘simliklari. - Toshkent, Fan, 1992. -B. 56-64.

19. Xoliqov K. O‘zbekiston janubidagi dorivor o‘simliklar. - Toshkent, Mehnat, 1992. -B. 63-69.

20. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A., Sobirov R.S. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug‘ati. - Toshkent, 2004. -B. 18-23.

21. Xolmatov X., Xabibov Z., Olimxo‘jaeva N. O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari. - Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. -B. 45-54.

22. Xolmatov X., Xabibov X. O‘zbekistonning dorivor o‘simliklari. - Toshkent, 1972. -B. 26-31.

23. Xo‘jamqulov B. Hisor davlat qo‘riqxonasi o‘simliklari. — To‘plam, Zoologiya instituti, Tuproqshunoslik instituti, Qarshi Davlat Universiteti, -Qarshi, 1994. -B. 56-62.

24. Cherepanov S. Sosudistыe rasteniya Rossii i sopredelnыx gosudarstv (v predelax bыvshego SSSR). - Sankt-Peterburg, Mir i semya. 1995. -S. 28-29.

25. Ergashev A., YArullin R. O‘zbekiston tabiatidagi noyob biologik yodgorliklar. - Toshkent, O‘qituvchi, 1995. -B. 42-48.

26. O‘zbekiston respublikasi Qizil kitobi 1984.

27. O‘zbekiston respublikasi Qizil kitobi 1998.

28. O‘zbekiston respublikasi Qizil kitobi 2009.

29. O‘zbekiston respublikasi Qizil kitobi 2016.

30. O‘zbekiston ensiklopediyasi. 3-jild, Toshkent, 2002. -B. 75-84.

31. O‘zbekiston ensiklopediyasi. 4-jild, Toshkent, 2002. -B. 129-134.

32. O‘zbekiston ensiklopediyasi. 5-jild, Toshkent, 2003. -B. 112-124.

33. O‘zbekiston ensiklopediyasi. 7-jild, Toshkent, 2004. -B. 110-116.

34. O‘zbekiston ensiklopediyasi. 9-jild, Toshkent, 2005. -B. 89-96.

35. O‘zbekiston ensiklopediyasi. 10-jild, Toshkent, 2005. -B. 105-141.

36. D.Qobulov Dorivor o‘simliklar. Qo‘llanma, -Namagan, 1994.-B. 15-18.

37. Qosimov A., Xolmatov X. Dorivor o‘simliklar. -Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1994. -B. 35-41.

38. Haydarov K., Xojimatov K. O‘zbekiston o‘simliklari. - Toshkent, O‘qituvchi, 1992. - B. 25-31.